

DIPLOM ISHI

СамДУ тарих факультети

«Тарихшунослик ва манбашунослик» кафедраси

***Mavzu: . Мир Муҳаммад Ҳайдарнинг «Тарихи Рашидий» асари
манба сифатида.***

**Талаба: Холикулов Анвар Эрназарович
Илмий рахбар: Доц. Худойбердиев М.**

SAMARQAND 2011 YIL

REJA:

Kirish..... 3-5

I Bob. Mirzo Muhammad Haydarning hayoti va ilmiy merosi

1.1. Muhammad Haydarning hayoti va ijodi 6-15

1.2. Muhammad Haydarning ustozlari 16-26

II Bob. “Tarixi Rashidiy” – O’rta Osiyo tarixiga oid manba

2.1. Asarda keltirilgan tarixiy manbalar 27-40

2.2. Tariqat vakillari haqidagi ma’lumotlar 41-56

Xulosa..... 57-60

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati..... 61-62

Kirish

Ulug` vatanimiz o`tmishi turli-tuman ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy voqealarga boy bo`lib, xalqimizning ana shunday ulkan tarixi olim-fozil ajdodlarimiz tomonidan o`z davrida qalamga olingan va bunday yozma manbalarning aksariyat qismi bizgacha ham yetib kelgan. Hozirgacha ularning ayrimlari ilmiy jihatdan o`rganilib, o`zbek va boshqa tillarda nashr qilingan.

Mamlakatimiz o`z mustaqilligini qo`lga kiritgach, tariximizga oid yozma manbalarni o`rganishga keng imkoniyatlar yaratildi. Zero hurmatli prezidentimiz ta`kidlaganlaridek “Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko`p asrlar mobaynida yaratib kelingan g`oyat ulkan, bebaho ma`naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo`lib qoldi”¹.

O`rta Osiyo, Xuroson, Hindiston va Sharqiy Turkistonning XV asr oxirlari – XVI asr birinchi yarmidagi tarixini o`rganishda Mirzo Muhammad Haydarning 1541-1546 yillarda yozilgan «Tarixi Rashidiy» asari katta ahamiyatga egadir. Asar ikki jild (daftar)dan iborat. Birinchi jildda Chig`atoy ulusi emirilgach, uning sharqiy viloyatlarida tashkil topgan davlat – Mo`g`ulistonning qariyb ikki yuz yillik (1347-1546) tarixi yoritilgan. Ikkinchi jild esa muallifning esdaliklaridan, ya`ni voqealarga boy jo`shqin hayoti davomidagi ko`rgan-kechirganlarining jonli va ta`sirli bayonidan iborat. Unda o`sha davr madaniy-ma`naviy hayotiga oid ma`lumotlar ham ko`p bo`lib, mashhur so`fiylar, shoirlar, olimlar, san`atkorlar hayoti va ijodi haqida g`oyat muhim ma`lumotlar keltirilgan.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997, 137 б.

«Tarixi Rashidiy»da temuriylar sulolasi, boburiylar sulolasi, mo'g'ul xonlari sulolasi, o'zbeklar sulolasining tarixiy manzarasi kitobxon ko'z o'ngida butun kengligi va ko'pligi bilan namoyon bo'lsa, ayni paytda qozoq xonlari, safaviylar sulolasi hamda qirg'iz biylari ham ma'lum ma'noda tarixchi nazaridan chetda qolmagan.

Sohibqiron Amir Temur, Shohrux mirzo, Mirzo Ulug'bek, Abusaid mirzo, Husayn Boyqaro, Bobur mirzo, Humoyun mirzo, Komron mirzo faoliyatlari, jangu jadallari tasviri bir yoqdan; Abulxayrxon, Shayboniyxon, Ubaydullohxonlar ikkinchi tomondan va uchinchi tomondan mo'g'ul xonlari: Tug'luq Temurxon, Yunusxon, Sulton Mahmudxon, Sulton Ahmadxon, Abobakr mirzo, Sulton Saidxon, Abdurashidxon va nihoyat, to'rtinchi tomondan qozoq xonlari: Girayxon, Qosimxon, Tohirxonlar, Bo'ydoshxon beshinchi tomondan, safaviylardan Shoh Ismoil Safaviy, Shoh Tahmosplar silsilalari asar bo'ylab harakatdadir.

«Tarixi Rashidiy»ning boshqa tarixiy asarlardan farq etuvchi xususiyati shundaki, unda hukmdorlar tarixi talqini bilan uzviy ravishda turli davrlardagi diniy shaxslar pir-murshidlarining ham o'ziga xos sulolalari faoliyati o'z aksini topgandir.

Chingizxon tomonidan Qoraqurumga ko'chirilgan Mavlono Shujo'iddin Mahmuddan boshlab, Tug'luq Temurxonni islomga keltirgan Mavlono Arshadiddin, uning avlodidan Xoja Tojiddin, Xoja Muhammad Yusufargacha bu tarixda ma'lumotlar bor. Ularning eng mashhurlari Xoja Ubaydulloh Ahror va Xoja Nuro bo'lib hisoblanadilar.

Xoja Ubaydullohning sodiq muridi – Xoja Nuro nafaqat diniy-ruhiy jabhaning buyuk arbobi, ayni paytda o'z zamonining mislsiz hoziq tabibi ham bo'lib hisoblanadi. Chunki u Sharq mamlakatlarining ilm-fan markazlarida bo'lib, tibbiyot sohasining eng mo'tabar ustozlaridan saboq olgan va birga xizmat ham qilgan. Muhammad Haydar mirzo u kishining karomatu tabobati haqida juda ko'tarinki ruhda fikr yuritadi.

Muhammad Haydar mirzo nazarida ushbu ma'naviyat darg'alari safida turuvchi kishilar, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda «asl ilm – din ilmi»

donishmandlari, arboblari, aziz-avliyolar ham borlar: Abdurahmon Jomiy, Mavlono Sa'diddin Koshg'ariy, Mavlono Nizomiddin Xomush, Xoja Alouddin Attor, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ubaydulloh Ahror, Mavlono Dovud Hisoriy, Mavlono Shayx Husayn Muhtasib, Mavlono Shamsiddin Bahrobodiy, Mavlono Shamsiddin Muhammad (Zavjiy) Rumi, Xoja Abdulaziz Jomiy, Shayx Puron, Mavlono Abu Said Ubahiy, Mavlono Mu'in Voiz, Mavlono Xoja Ko'hiy, Hofiz Mahmud Ziyoratgohiy va boshqalar haqidagi ma'lumotlar yanada mufassalroq berilgandir.

Shu jihatdan ushbu malakaviy bitiruv ishi uchun tanlangan "Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asari manba sifatida" mavzusini dolzarb deb hisoblaymiz. Ushbu mavzuni biz asarning 1996-yilda Toshkentdagi "Fan" nashriyotida chop etilgan rus tiliga tarjima qilingan nushasi asosida yoritishga qaror qildik.

Tarixchi uchun yozma manbalardagi ma'lumotlar tarixiy o'tmishni tiklash va bayon etishda asos bo'lib xizmat qilib kelgan. Lekin bunda tez-tez o'ziga xos ziddiyatlar kelib chiqadiki, bunday vaziyatlarga shu paytga qadar ham e'tibor berib kelinmoqda. Bular yozma manbalardagi xronologiyani, ya'ni qo'lyozmada tasvirlangan davrning mos tushmasligi, boshqacha aytganda, yozma manbaning muallifi va mazmuniga ko'ra belgilangan vaqt bilan bizdagi mavjud qo'lyozmalar ro'yxatidagi belgilangan vaqt tafovutidir.

Shunday qilib qo'lyozmalarning bayonini berayotganda ikkita muhim jihatga amal qilish joiz hisoblanadi. Bular-xronologiya (voqea-hodisalarning mos tushishi) va muammoli jihatlar. Qo'lyozmalarning xronologik tavsifini berish jarayonida ikkita muhim jihat mavjud bo'lib, bu qo'lyozmada ko'rsatilgan davr (yoki qo'lyozma muallifining yashagan davri) va mazkur manbalarning ro'yxatida ko'rsatilgan davrdan avvalroq qayd etilgandir. Ko'p hollarda bu ikki jihat o'rtasida davriy farq juda katta bo'ladi.

Bitiruv ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I Bob. Mirzo Muhammad Haydarning hayoti va ilmiy merosi

1.1. Muhammad Haydarning hayoti va ijodi

Mirzo Muhammad Haydar 1499 yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Uning otasi Muhammad Husayn Ko'ragon o'sha paytda Toshkent xoni bo'lgan Sulton Mahmudxon (1487-1503) nomidan O'ratepa viloyati hokimi edi. Onasi Xub Nigorxonim esa Mo'g'ulistonning marhum xoni Yunusxonning qizi va Zahiriddin Muhammad Boburning onasi Qutlug' Nigorxonimning singlisi bo'lib, shu jihatdan Bobur va Mirzo Haydar qarindosh edilar.

Xo'b Nigor xonim vafot etib, Haydar mirzo onadan juda yosh ayriladi: «Xo'b Nigor xonim, kaminaning onasi, tinchlik-omonlik kunlarida Toshkanda vafot etgan edi», – deb yozadi bu haqda muallif.

Muhammad Husayn ko'ragonning ota-bobolari O'rtubu, Po'lodchi, Xudoydod, Said Ahmad, Sonsiz Mirzo, Muhammad Haydar, Muhammad Husayn turklashgan mo'g'ul urug'laridan dug'lot (mo'g'ulcha «dog'olot» – cho'loq) qabilasiga mansubdir. Ular Mo'g'uliston xonlari, Chig'atoylar davrida ulusbegi, Qoshg'ar hokimi lavozimida turganlar².

Bobur Shayboniydan engilib tog'asi Sulton Mahmudxondan O'ratepani so'rganida xon ko'nganu, Muhammad Husayn rozi bo'lmagan. Bobur o'z yaqinlari bilan vatandan ko'ngul uzib Kobulga ketadi. Muhammad Husayn ham 1503 yili Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxon Axsi atrofida Shayboniyxon qo'shinlari tomonidan tor-mor keltirilgani va asir olinganini eshitib, Qorateginga, undan Qunduz, so'ng Hirotga Sulton Husayn huzuriga qochib boradi va ko'p o'tmay Kobulga Bobur Mirzo huzuriga borgan edi. 1506 yili Bobur Hirotga Sulton Husayn mirzo ta'ziasiga borganida, Kobulda Sulton Mahmud mirzoning o'g'li

² Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Т., Фан, 2007, 152 б.

Mirzoxon Kobul saltanatini egallashga urinadi va Muhammad Husaynni ham bu isyonga jalb etishadi. Bobur kelib taxtini qayta egallagach, Mirzoxon va Muhammad Husaynga istagan joyga ketishga «ruxsat» beradi.

Muhammad Husayn ko'ragon o'g'li Haydar mirzoni Hirotga olib ketadi. Uning ilk savod chiqarishi davri, xat mashq qilishlari 1506-1509 yillarga to'g'ri keladi. Natijada u uch-to'rt yil Hirotida bo'ladi va adabiy-madaniy hayotdan yaxshi xabardor bo'ladi.

Muhammad Husayn 1509 yili Shayboniyxon tomonidan Xurosonda yashirincha qatl etiladi. Uning qabri Hirotidagi amir Said Husayn Sodot mozorida.

Bu paytda uning o'g'li Muhammad Haydarni Buxoroda bo'lgan. Otasining sodiq kishilari uni bir muncha vaqt shu erda asradilar, so'ng Badaxshonga olib borib, qarindoshi Sulton Uvays Mirzoning (Xon Mirzo deb atalgan) qo'lga topshirdilar. Mirzo Muhammad Haydar keyinchalik Kobulga – Bobur huzuriga keladi va bu erda uch yil yashaydi. Bobur unga g'amxo'rlik ko'rsatib yaxshi tarbiya beradi. Ustozlar tayinlab, xolavachchasini ilm kasb etishga undaydi. Bu haqda Muhammad Haydar o'z asarida cheksiz minnatdorlik bilan eslaydi.

Keyinroq Mirzo Haydar Boburdan ruxsat olib Andijonga – tog'avachchasi Sulton Saidxon (1514-1533) oldiga keldi va u bilan qo'shilib Qoshg'arga ketib qoldi. Sulton Saidxon ko'p o'tmay bu erda Abu bakr dug'lot ustidan g'alaba qozondi va Qoshg'ar hamda YOrkandni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Muhammad Haydar to 1533 yilgacha, ya'ni Sulton Saidxon vafotiga qadar uning xizmatida bo'ldi. Dastlab xonzoda Abdurashidxonga tarbiyachilik, ya'ni otalik qildi, so'ng o'zining sarkardalik iste'dodini ham namoyon qildi. Xon buyrug'iga ko'ra Badaxshon, Kofiriston, Tibet o'lkalariga qilingan harbiy yurishlarga boshchilik qiladi. Muhammad Haydar mirzo Sulton Saidxonning saltanatidagi etakchi davlat arbobi sifatida xizmat qildi. Eng muhim harbiy yurishlar bosh qo'mondoni ham Haydar mirzo edi. Badaxshon, Kofiriston, Tibet, Ladak, Kashmir yurishlari shular jumlasidandir³.

³ Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ Марказий Осиёда ислом маданияти. Т., Шарқ, 2005, 142 б.

1533 yili Sulton Saidxon vafot etgach, otasi o'rniga taxtga o'tirgan Abdurashidxon (1533-1570) dug'lot amirlarini taqib ostiga oldi, ularning ba'zilarini qatl etdi. Bularning orasida Muhammad Haydarning tog'asi Sayyid Muhammad Mirzo va qarindoshlarining ko'pchiligi bor edi. Tibetda bo'lgan Muhammad Haydar bundan xabar topib, mamlakatni tark etdi. Avval Badaxshonga, so'ngra u erdan Lohurga – Boburning o'g'li Komron Mirzo oldiga boradi. 1540 yili Agraga borib Humoyun xizmatiga kiradi. U 1541 yili boburiylar nomidan Kashmirni zabt etadi va 1551 yilgacha deyarli mustaqil hukmdor sifatida bu o'lkani idora qiladi. Shu yili u mahalliy isyonlardan birini bostirish paytida yarador bo'lib, noma'lum kishilar tomonidan uyushtirilgan suiqasd natijasida halok bo'ladi. Qabri Kashmirda, Srinagar shahrining podshoh Zaynulobiddin mozori yoki Mazori Salotin (Sultonlar mozori) qabristonidadir⁴.

Mirzo Muhammad Haydar haqida «Boburnoma»ning ikki o'rnida g'oyat muhim ma'lumot berilgan. Jumladan, «Haydar mirzo edi. Otasini o'zbek o'lturgandin so'ng kelib, mening mulozamatimda uch-to'rt yil bo'ldi, so'ngra ijizat tilab, Koshg'arga xon qoshiga bordi. Bu tarixda deydurlarkim, toyib bo'lub, yaxshi tariqa paydo qilibtur. Xat va tasvir, o'q va paykon va zihgir har nimaga iligi chaspondur. Ta'bi nazmi ham bordur. Manga arzadoshti kelib edi, inshosi ham yomon emas»⁵.

Ushbu qisqa axborotlarda Bobur mirzo Muhammad Haydar haqida juda ko'p ma'lumotlarni bergan. Hatto uning Sulton Saidxon dargohida ichkilikka berilgani va tavba qilib ichmay qo'ygani qayd etilib, maktubiga ko'ra uning bayoni iqtidoriga yaxshi baho berilgan.

Muhammad Haydar zamonasining o'qimishla va keng ma'lumotli kishilaridan edi. Boburning guvohlik berishiga qaraganda, u durustgina shoir, xattot, rassom, shuningdek, nayza va kamon yasovchi usta bo'lgan. Muhammad Haydarning bizning zamonimizgacha ikki yirik asari etib kelgan. Bulardan biri

⁴ Мавлоно Муҳаммад Қози. Хукмдорга ўғитлар. Т., Шарқ, 1999, 5 б.

⁵ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т., 1989, 58 б.

«Jahonnamo» deb atalib, ertak tarzida yozilgan. Uning yagona qo'lyozmasi Germaniyaning Berlin shahri kutubxonalaridan birida saqlanmoqda.

Aytish mumkinki, Mirzo Haydar buyuk qarindoshining unga bergan yuksak bahosiga munosib ravishda Kashmirda ekanligida fors tilida o'zining ikkinchi yirik va mashhur «Tarixi Rashidiy» nomli ajoyib asarini yaratdi. Kitob 1996 yili «Fan» nashriyotida rus tilida bosilib chiqdi.

1541-1546 yillarda yozilgan «Tarixi Rashidiy» asari ikki jild (daftar)dan iborat. Birinchi jildda Chig'atoy ulusi emirilgach, uning sharqiy viloyatlarida tashkil topgan davlat – Mo'g'ulistonning qariyb ikki yuz yillik (1347-1546) tarixi yoritilgan. Tug'luq Temurxon (1348-1363)dan to Abdurashidxonning taxtga o'tirguncha (1533 yil) bo'lgan davr batafsil yoritilgan.

Asarning birinchi daftari turli naql-rivoyatlar, shuningdek, Yoqut Hamaviyning «Mujam ul-buldon», Juvayniyning «Tarixi Jahonkushoy», Rashiddinning «Jome ut-tavorix», Jamol Qarshiyning «Mulhaqot us-suroh», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus» va nihoyat Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla' us-sa'dayn» kitoblaridagi ma'lumotlar asosida yozilgan. Lekin, unda ham Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid yangi, yuqoridagi manbalarda bo'lmagan ma'lumotlar ko'p. Qolaversa, birinchi daftar Qoshg'ar, Qozog'iston, shuningdek, Movarounnahr va Turkistonning XIV-XVI asr boshlaridagi siyosiy tarixini mukammal qamrab olishi bilan qimmatlidir.

Ikkinchi daftar birinchisidan keskin farqli o'laroq esa muallifning esdaliklaridan, ya'ni voqealarga boy jo'shqin hayoti davomidagi ko'rgan-kechirgan xotiralarining jonli va ta'sirli bayonidan iborat. Bu ma'lumotlar Qoshg'ar, Movarounnahr, Afg'oniston hamda SHimoliy Hindistonning XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o'rganishda asosiy va qimmatli manbalardan hisoblanadi⁶.

⁶ Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Т., Фан, 2007, 154 б.

«Tarixi Rashidiy» XVIII asrdan boshlab hozirgacha dunyoning 10 dan ortiq tillariga tarjima qilingandir. Jumladan, ingliz (bir necha marotaba), nemis, fransuz, xitoy, qozoq, turk, uygʻur, rus, qirgʻiz va boshqa tillarga oʻgirilgan.

Muhammad Haydar mirzoning «Tarixi Rashidiy» asarini forsiy tilda nashrga tayyorlagan, ilmiy-tanqidiy matn yaratgan, oʻz tillariga tarjima qilgan va ilmiy muomalaga kiritgan: turkiylarning fozil farzandlari – Muhammad Sodiq Koshgʻariy, Mullo Muhammad Niyoz Abdulgʻafur oʻgʻli, ingliz olimlari Denison Ross, Uilyam Erskin, Tomas Arnolʼd, Amerika olimi Uiler Tekston, franquz olimi Rene Grosse, Eron olimlari Husayn Razmjoʻ, Qozi Ahmad Tataviy, oʻzbek olimlari Hamidulla Hasanov, Boʻriboy Ahmedov, Asomiddin Oʻrinboev, Azamat Ziyo, Sabohat Azimjonova, Omonbek Jalilov, Gʻulom Karim, Raʼno Jalilova, Larisa Epifanova, qozoq olimlari Abdusattor Derbesali, Islom Jemeney, B. Komakov, Bayuzak Kojabekuli Albani, uygʻur olimlari Ayupjon Eliyup, Rahmatulla Joriy, Muhammadturdi Mirzoahmat, Farhod Jolan, Mirsulton Usmonov, rus olimlari V.V.Bartolʼd, V.V.Velyaminov-Zernov, T.Sultonov, ozarbayjon olimi Aziz Mirahmedov, hind olimi Muhammad Qosim Hindushohlarning arzanda xizmatlarini qayd etish lozim.

Oʻz tariximiz va maʼnaviyatimizning mumtoz manbai boʻlgan «Tarixi Rashidiy» yaqinda oʻzbek tiliga tarjima qilindi. Bu haqda tarjimonlar shunday yozadi: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Maʼnaviyatimiz fidoyisi» deb alqagan Bobur jamoat fondining raisi Zokirjon Mashrabov agar bizning diqqatimizni «Tarixi Rashidiy»ga tortib «Bu ikkinchi «Boburnoma»dir», deya bu asar tarjimasiga bizni jalb etib, moddiy va maʼnaviy madad bermaganlarida biz bu ish ijrosiga kirishmagan boʻlardik. Biz bu xizmatni zimmamizga olib qoʻshimcha manbalar izlayotgan paytimizda (garchi qoʻlimizda «Tarixi Rashidiy»ning Tekston tayyorlagan ilmiy nashri (Garvard, 1996) va ushbu asarning Asomiddin Oʻrinboev, R.P. Jalilova va L.M. Epifanovalar 1996 yilda rus tiliga oʻgirgan tarjimalari boʻlsa-da) Zokirjon Mashrabov Bobur va uning topilmagan asarlarini izlab Xitoyga safar qildilar va bizga ham asqotgan – «Tarixi

Rashidiy»ning Muhammad Niyoz Abdulg'afur o'g'li bajargan turkiy tarjimasini – SHinjong xalq nashriyotida bosilgan (2007 yil) ikki jildli kitobni olib keldilar⁷.

O'rta Osiyo, Xuroson, Hindiston va Sharqiy Turkistonning XV asr oxirlari – XVI asr birinchi yarmidagi tarixini o'rganishda Mirzo Haydarning esdaliklari katta ahamiyatga egadir. Asarda o'sha davr madaniy-ma'naviy hayotiga oid ma'lumotlar ham ko'p bo'lib, mashhur so'fiylar, shoirlar, olimlar, san'atkorlar hayoti va ijodi haqida g'oyat muhim ma'lumotlar keltirilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, Mirzo Haydar bolalik paytidan boshlab o'sha davrning ko'pgina mashhur kishilari bilan muloqot qilgan va ularning ba'zilariga shogird bo'lgan.

Voqea-hodisalar talqinining izchilligi, muallifning og'zaki ishonarsiz ma'lumotlarni asarga kiritmasligi, tarixiy arboblar shaxsiyatiga haqqoniy oqilona munosabat, hatto diniy nuqtai nazardan o'zi la'natlab turgan shaxs va uning so'zlari, maktublari mazmuni haqqoniyatiga erishish, talqinda fikr tiniqligi, balandparvoz murakkab jumladan qochish, samimiylik tarixchi va adib Muhammad Haydar mirzoning uslubini belgilaydi.

«Tarixi Rashidiy»da temuriylar sulolasi, boburiylar sulolasi, mo'g'ul xonlari sulolasi, o'zbeklar sulolasining tarixiy manzarasi kitobxon ko'z o'ngida butun kengligi va ko'pligi bilan namoyon bo'lsa, ayni paytda qozoq xonlari, safaviylar sulolasi hamda qirg'iz biylari ham ma'lum ma'noda tarixchi nazaridan chetda qolmagan.

Mirzo Haydar «Tarixi Rashidiy»da mirzolar, xonlar, o'zbeklar va qozoq hukmdorlariga doir voqealarni talqin qilar ekan, buyuk insonshunos sifatida (bu sifat Boburga ham juda xos edi) har bir hukmdorning ma'naviy-axloqiy olamini ham ochib berish payida bo'ladi. Muallif-adib bir necha xil ijtimoiy siymolarni kitobxon ko'z o'ngida tizadi. Ulug' maqsadli buyuk jahongir va lashkarboshi hukmdorlar: Amir Temur, Tug'luq Temurxon, Abusaid mirzo; ma'rifatli hukmdorlar – Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Yunusxon, Bobur mirzo, Ubaydullohxon, Sulton Saidxonlarni bir tomondan, razil-shafqatsiz,

⁷ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Ваҳоб Раҳмонов ва Янглиш Эгамов таржимаси. Т., Шарқ, 2010 45 б.

insofsiz, mutakabbir, yovuz xon, shoh va beklar: Abobakr mirzo, Mirzo Ali Tog'ay, Kuchluk, Do'stmuhammadxon, Muhammadilarni ikkinchi tomondan gavdalantiradi.

Darhaqiqat, Amir Temur buyuk jahongir sifatida Hindistondan Turkiyagacha lashkar tortib ulkan bir mamlakat sohibi bo'lganidek, Abusaid mirzo ham Sharqiy Turkistondan Kavkaz Qorabog'igacha cho'zilgan hududlarni o'z zabtiga olib, Amir Temurning oyog'i tekkan erlarni yana bir mamlakat holiga keltirishga tirishdi. Mo'g'ul xonlaridan Tug'luq Temurxon ham Chingiz davrida Chig'atoyga mansub keng hududlarda o'z hokimiyatini tiklash uchun O'rta Osiyoga bosqinchilik hujumlari uyushtirib turdi va bu mo'g'ullarning saltanati soyasidan Amir Temur, Shohrux va Ulug'bek mirzolar davrida ham davlat hujjatlari boshida falon xon nomi turardi. Chunonchi, Amir Temur farmonlari «Suyurg'otmishxon yorlig'idin Temur Ko'ragon so'zum» deb boshlanadi. Keyingi hukmdorlar ham ana shunday farmonlar yozdirishgan; o'zlarini xon ismidan keyin keltirishgan. Bu noxush an'anaga Abusaid mirzogina chek qo'ydi.

Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro Movarounnahr va Xurosonning poytaxt shaharlari Samarqand va Hirotni nafaqat me'moriy obidalar jihatidan, balki ilm-fan, madaniyat va san'at sohasida ham jahonga ko'z-ko'z qiladigan darajaga etkazdilar. Bobur va Ubaydullohxon ham o'zlari buyuk shoir, lashkarboshi bo'lishlari bilan birga shaharsozlik va ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shdilar, o'z saroylarida adabiy muhit yaratdilar.

Mo'g'ul xoni Yunusxon taqdir taqozosi bilan otasi Uvaysxon vafotidan so'ng Samarqandga keldi. Shohrux mirzo o'n uch yashar Yunusxonni buyuk mutafakkir Sharafiddin Ali Yazdiy tarbiyasiga topshirdi. O'smir Yunusxonning ulug' tarixchi xonadoniga kelishi naqadar quvonchli hodisa bo'lganligini Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiyning quyidagi baytidan tasavvur etish mumkin: «Xitodan xon keldi» deb aytgan inson, Uying kuygur, bunday degin: «Jon keldi, jon!». Yunusxon yigirma besh yoshlarida besh-olti yil Forsda, SHerozda bo'lib, mirzolar saltanatini ko'rdi. Nihoyat, Abusaid mirzo uni Samarqandga chaqirtirib shohona ziyofatlar berdi va O'rta Osiyo hukmdorlariga rasm bo'lgan davlat buyruqlarida

xon so'ziga barham berilganini uqtirdi: «Hozir siz o'zingizning avvalgi xonlik odatlaringizni hatto xayolingizga ham yaqin keltirmang: «Ya'ni, endi shoh farmonlari o'z sulolasi nomi bilan ziynatlanadi. Bundan buyon oramizda faqat do'stlik va hamjihatlik hukm suradi» dedi va Yunusxonni Mo'g'ulistonga jo'natdi. Ma'rifatli Yunusxon mutafakkir sifatida Abusaid mirzo yaxshiligini unutmadi va uning farzandlarini kuyov qilib, yaxshi do'stona qarindosh-urug'chilikka asos soldi.

Bu haqda Haydar mirzo «Tarixi Rashidiy»da shunday deb yozadi: «Yunusxonning olijanob qalbi ma'lum darajada xotirjam bo'lgach, u Yaratganning azaliy irodasiga amal qilib, ya'ni «Qachon sizlarga biron ibora bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olinglar yoki (hech bo'lmasa o'sha iborani qaytaringlar)» degan oyati karima mazmunidan kelib chiqib, «Sulton Abusaid mirzo azaliy adovatni yangi do'stlik bilan almashtirdi, biz esa shu do'stlikni qarindoshlik rishtalari bilan mustahkamlaymiz», dedi. U Sulton Abusaid mirzoning uch o'g'liga – Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmud mirzo va Umarshayx mirzoga o'zining uch qizi – aqlu iboda tengsiz bo'lgan Mehr Nigor xonim, Sulton Nigor xonim va Qutluq Nigor xonimni berdi»⁸. Tarixdan ma'lumki, Yunusxon to vafotiga qadar ana shu murosasiz kuyovlarining o'zaro mojaro va urushlariga barham beruvchi yagona murosasoz shaxs sifatida xizmat qilib keldi. Aytish kerakki, mo'g'ul xonlarining aksariyati Yunusxongacha o'ttiz yoshlar atrofida o'lib ketishgan. U esa etmish yoshdan ortiq umr kechirdi.

Bu haqda «Tarixi Rashidiy»da shunday qayd etiladi: «Yunusxonning muborak yoshi etmish to'rtga etgan edi. Mo'g'ul sultonlaridan hech biri bu yoshga etmagan, ularning ko'pchiligi hatto qirq yoshga etmay o'lib ketishgan. U Toshkanddagi Shayx Xovand Tahurning tabarruk mozori yoniga dafn etilgan. U erga mashhur ulug'vor obida qurilgan».

«Sulton Mahmudxondan kichigi Sulton Ahmadxon bo'lib, Olachaxon ismi bilan mashhur. Olachaxon deb atalishining sababi shundaki, aytishlaricha, qalmoq

⁸ Мирза Мухаммад Хайдар. Та'рих-и Рашиди. Введ., пер. с персидского А.Урунбаева, Р.П. Жалиловой, Л.М. Епифановой. Примечания и указатели Р.П. Жалиловой и Л.М. Епифановой. – Т.: Фан, 1996.- с. 248

va mo'g'ul tilida qotilni «olachi» deyдилar. Qalmoqlarni bir necha marta bosib, ko'plab odamlarini qirgani uchun «Olachi» deyilaverib, iste'molda Olacha atalib ketgan».

«Tarixi Rashidiy»dan ayni ushbu ma'lumotlarning to'ldirilgan holatini o'qiyimiz: Sulton Ahmadxon «Bir necha marta qalmoqlarga qarshi muvaffaqiyatli hujumlar qildi, ulardan ko'pini o'ldirdi. Ikki marta Esan Toyshi bilan jang qilib, har ikkalasida g'olib bo'ldi. Qalmoqlar undan nihoyatda qo'rqishgan va uni Olachaxon deb atashgan. Bu – mo'g'ul tilida «Qotil xon» degan ma'noni beradi. Bu laqab xonda umrbod qolgan, odamlar uni Olachaxon deyishgan. Hozir mo'g'ullar uni Sulton Ahmadxon deb, boshqa qavmlar esa «Olachaxon» deyishadi. Mirxond, Xondamir Hiraviy va boshqa tarixlarda «Olachaxon» deb yozishgan».

Asarda «Boburnoma» ta'siri yaqqol sezilib turadi. Akademik V.V. Bartold ham buni ta'kidlab yozgan edi: «Mirzo Haydarning asari ko'p hollarda uning xolavachchasi Boburning yodnomalarini eslatadi. Mirzo Haydarning tarixiy ma'lumotlari xuddi Boburnikidek haqqoniyligi va xolisligi bilan ko'zga tashlanadi, jug'rofiy tavsiflar esa joylarni aniq va ravshan ifodalaydi».

Ikki fundamental asar – «Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy» Hirot adabiy-madaniy muhiti talqinida shunchalik bir-biriga yaqinlashadi va bir-birini to'ldiradiki, bu ishda Muhammad Haydar mirzo Bobur mirzo bilan ijodiy musobaqaga tushganday bo'ladi. «Boburnoma»dan ko'pchilik xabardor bo'lganliklari uchun qayd etamizki, Bobur o'z asarida Abdurahmon Jomiy ismini tabarrukkagina eslatgan bo'lsa, Haydar mirzo Jomiy hayotining ajoyib sahifalarini juda izchillik bilan bayon etadi, uning risolasi matnini to'lig'icha keltiradi.

Aftidan, Muhammad Haydar mirzo «Vaqoe'» («Boburnoma»)dan yaxshi xabardor bo'lgan. Shuning uchun Hirot ilm-adab hamda din ahllari xususidagi ma'lumotlari bir-birini takrorlamaydi, balki to'ldirib, mukammallashtirib boradi. Haydar mirzo madaniy-adabiy muhit miqyosini kengroq qamrab olganidek, diniy-tasavvufiy arboblarning hayoti va ijodiga ham juda katta o'rin ajratadi. «Tarixi Rashidiy»dagi shoir, olim, rassom, xattot va fuzalolarning ismima-ism ko'rsatilgani va har biri haqidagi ma'lumotlarning aniqligi, muhimligi kishini hayratga soladi.

Bu o'rinda ushbu ma'lumotlarning ko'pligi, xilma-xilligi, mukammalligi jihatidan «Tarixi Rashidiy» «Boburnoma» bilan bimalol bellashadi. «Boburnoma»da tilga olingan shoiru olimlar haqidagi ma'lumotlar bu asarda yangiligi bilan e'tiborimizni jalb etadi. Hatto «Vaqoe'» («Boburnoma»)da Alisher Navoiy haqida Bobur qanchalik keng to'xtalgan bo'lmasin, Muhammad Haydar mirzo ma'lumotlari ularni yanada mukammallashtiradi, aniqliklar kiritadi.

Yapon olimi Eyji Mano Markaziy Osiyoning XV-XVI asrlardagi tarixini «Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy» asosida yaratish mumkinligi tajribasini «Bobur va uning davri» nomli fundamental tadqiqotida isbotlab berdi. Biz esa bu tarjimamiz bilan ushbu mintaqa aholisining tildosh, dildosh va madaniyatdosh xalqlar ekanligini tasavvur ettirish uchun, bu ikki asar bir-birining davomi degulik xulosaga keltirishga ko'maklashdik, xolos.

Bobur mirzo va Haydar mirzolar shaxsiyatida din va shariatga munosabat deyarli bir xil. Har ikkisi ham Muhammad (s. a. v) dini, shiati va bu sohaning jonbozlari – targ'ibotchilari bo'lgan ulug' pirlarga: Bobur Xoja Ubaydulloh Ahror, uning o'g'illari Xoja Yah'yo va nabiralari Xoja Ya'qub, Andijon qozisi va piri Muhammad Qoziga kuchli e'tiqod bilan yashaganidek, Mirzo Muhammad Haydar ham Xoja Muhammad Nuroga, Mavlono Tojiddin, Mavlono Arshadiddinga ulug' ehtirom bilan qaraydi. Bobur «Boburnoma»da Xoja Ubaydulloh Ahroming, Xoja Ya'qubning uning joniga ora kirganlarini tushlari va hayotiy voqealar bilan dalillaganidek, Mirzo Haydarning Ubaydullohxon tomonidan Amuga cho'ktirilmagani boisi Xoja Muhammad Nuroning Mavlono Muhammadga Haydarni olib qochishga bergan buyrug'i bo'ladi. Shu tavsiya va ko'rsatma tufayli Mavlono Muhammad uni avval Badaxshonga, so'ngra Kobulga – Bobur huzuriga olib boradi. Demak, aziz pirlar ham Bobur mirzo, ham Haydar mirzo jonlariga bevosita yoki bilvosita ora kiradilar.

Aziz-avliyolar, pir-murshidlarga «Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy» asarlarida ajratilgan o'ringa ahamiyat bersak, Haydar mirzo Bobur Podshohga ko'ra ko'proq e'tibor bergan desa bo'ladi. Biroq Bobur mirzoning fiqhga doir: «E'tiqodiya», «Kitob ul-haj», «Kitob us-salot», «Kitob uz-zakot» asarlari va Xoja

Ubaydulloh Ahrorning «Volidiya» asarini tarjima qilganligini inobatga olsak, bu tarozu pallalari tenglashadi.

1.2. Muhammad Haydarning ustozlari

Haydar mirzo maktabga o'z ilk qadami xususida yozadi: «Otam Xurosonga kelganidan keyin bir necha kun o'tgach, bola to'rt yoshu to'rt oyu to'rt kunlik bo'lganda maktabga berish odatiga ko'ra, meni maktabga bermoqchi bo'ldi va oq fotiha olish uchun avval shayxulislom oldiga olib bordi va u kishidan menga saboq berishni so'radi. Shayx: «Alloh engillik beradi» deb yozdi va g'oyatda muloyimlik hamda mehribonchilik bilan meni tizzasiga o'tqazib, shirin so'zlar bilan menga saboq berdiki, o'sha paytdan beri o'ttiz sakkiz yil kechgan bo'lsada, Shayxning muborak yuzi, uning saboqlari va mehribonchiligi naqshi xuddi toshga o'yilgandek xotiramda qolgan. Ishonchim komilki, o'sha saboqlarning shu kunlargacha etib kelgan sharofati bu dunyoda ham, oxiratda ham etib turadi, inshoolloh».

Deyarli o'ttiz yil davomida din ma'rifati bobida Hirotda yagonai davron bo'lgan shayxulislom Sayfuddin Ahmad haqidagi Haydar mirzoning qaydlarini o'qiylik: «Shayxulislom Sulton Husayn mirzo hukmronligi davridan boshlab to Shoh Ismoilning Shohibekxon (Shayboniyxon) ustidan g'alaba qilguniga qadar shayxulislom edi. Shu muddat ichida u shunchalik taqvo, diyonat va avliyolik ko'rsatdiki, Shayxning so'zlariga e'tiroz bildirgulik zot topilmas edi. O'sha davrning ko'plab ulamolari uning shogirdlari edi. Ular uning shogirdi bo'lganliklaridan g'ururlanib yurishardi: Shay-xulislom (Sayfuddin Ahmad) huzuridan ketishayotganda ulamolar: «Insonning hayotda shunchalik ko'p bilimni

to'plaganiga hayron qolasan kishi» deya hayrat izhor qilishardi. Shayxning darslari yigirma to'rt yil davomida shu tariqa kechdi va bu olimlar hamisha Shayxga muhtojlik sezishdi»⁹.

«Otam Hirotga birinchi marta kelganida men uchun ustoz-muallim topgan edi. U hofiz Mirim ismli taqvodor, olim kishi edi. Darhaqiqat, u mo'min, hofizi Qur'on, turli fazilatlarga ega bo'lgan kamsuqum inson edi. Qur'onni yoqimli ovozda qiroat qilar, nasxta'liq xatida yaxshi yozar edi. U meni Qur'onni qiroat qilishga va xattotlikka o'rgatar edi».

Muhammad Haydarning husnixatdagi ustози Mavlono Muhammad Abrishimiy bo'lganligi «Tarixi Rashidiy»da qayd etilgan.

Uning ustozlaridan biri Mavlono Muhammad Qozi edi. Mirzo Haydarning o'zi e'tirof etishicha, Muhammad Qozi ikki marotaba uning hayoti saqlab qolinishiga sababchi bo'lgan. Ustoz va shogird ilk bor uchrashganlarida shogird hali go'dak edi. Bu hakda Muhammad Haydar shunday hikoya qiladi: «Kaminaning hayotidagi nodir voqealardan biri shuki, go'daklik ayyomining o'rtasida qo'qqisdan kuchli bavo sil kasalligi bilan og'rib qoldim. Tabiblar meni davolashdan umid uzgan edilar. Ota-onamda kaminadan oldin to'rtta qiz farzandlari bo'lib, ular mozorlar va zamona ulug'lariga juda ko'p marotaba ziyoratga borib, saxovatli va baxsh etuvchi Ollohdan o'zlariga o'g'il so'raganlar. Bisyor tilak va orzumandliklardan keyin kamina dunyoga kelibman. Shu sababli ota-onamning menga bog'lanishlari haddan oshiq edi. Kasallik kuchayib yuqori darajaga etgach, ular qaerdaki ko'makdan umid bo'lsa, borib iltijo qilardilar. Nihoyat, maxdumimiz va sayidimiz hazrat Mavlono Muhammad Qozidan uyimizga tashrif buyurishini so'radilar. Ul kishi hazrat Eshon Xoja Ubaydullohning ulug' ashoblaridan edilar. Bugungi kunda xalqning aksar qismi hazrat Eshon quddisa sirrahuning yuksak tariqatlariga irodat etmoq baxtiga musharraf bo'lishlari hazrat Mavlono va uning izdoshlari xizmatlari tufaylidir. Hazrat Mavlono zoti shariflaridagi oliy himmatlilik tufayli uyimizga qadam ranjida

⁹ Мирза Мухаммад Хайдар. Та'рих-и Рашиди. Введ., пер. с персидского А.Урунбаева, Р.П. Жалиловой, Л.М. Епифановой. Примечания и указатели Р.П. Жалиловой и Л.М. Епифановой. – Т.: Фан, 1996.- с. 141

qilibdurlar. Kaminani ul kishining masihosifat nazari oldiga keltirishganida Mavlono uzoq o'yga cho'mibdi. U uydan tashqari chiqqach, debdi: «Agar Mirzoning farzandi shu ahvolda ekanligini bilganimda kelmas edim». U parhezdan boshqa hech qanday dori-darmon buyurmasdan ketibdi. Tong paytida o'z xodimlaridan birini ota-onam oldiga ushbu xabar bilan jo'natibdi: «Borib Mirzo va xotinidan yaxshi xabar uchun suyunchi olginki, Haq subhonahu va taolo ularning farzandiga ilohiy dorixonadan salomatlik sharbati va hayot ne'matini baxshida qildi». Bu bashorat ota-onamga etishi bilan ular shu tongning o'zida u kishining sharif dargohlari eshigi oldiga borib cheksiz minnatdorlik bildirishdi. O'sha kunning o'zidayoq kaminada sog'ayish alomatlari paydo bo'ldi va to shu kunlargaacha hech qachon bavoil kasalligi qaytalamadi. Maxfiy qolmasinki, bu ishda ikkita karomat zohir bo'ldi: biri dori-darmonsiz sog'ayish bo'lsa, boshqasi esa bavoil kasalligining qaytalamasligi bo'lib, bu ochiq-oydin karomatdir. Chunki bavoil aslida bir umrlik kasallikdir. O'sha paytdan to hayotining oxirigacha hazrat Mavlono Muhammad Qozi zohiran va botinan kaminani o'z inoyati soyasi va tarbiyasi panohida saqladi...»¹⁰

Muhammad Qozi ikkinchi marotaba Shayboniyxon hukmronligi davrida Mirzo Haydarning joniga oro kiradi. Shayboniyxon Xurosonda Mirzo Haydarning otasi Muhammad Husayn Ko'ragonni qatl ettirgach, uning o'g'lini ham yo'qotish uchun Buxoroga yashirin buyruq bilan odam jo'natadi. Bu paytda Buxoroda Shayboniyxonning jiyani Ubaydullaxon hokim bo'lib, u Mirzo Haydarning opasi Habiba Sultonga uylangan, ya'ni uning pochchasi edi. Lekin, hatto Ubaydullaxon ham Shayboniyxonning buyrug'iga qarshi bir ish qilishdan ojiz edi. Shayboniyxon yuborgan odam Muhammad Husayndan qolgan boyliklardan ba'zi narsalar o'g'lida bordir, boladan bularning qaerdaligini bilib o'zlashtirib olmoq mumkin, degan mulohazalar bilan xon buyrug'ini amalga oshirishda hayallaydi. U paytda Buxoroda bo'lgan Muhammad Qozi Muhammad Haydarning hayoti qanchalik xatarda qolganini anglaydi va uning tarbiyachisi Mavlono Sadr oldiga kelib, uni qat'iylik bilan bolani olib Buxorodan qochib ketishga undaydi. Qochish rejasini

¹⁰ Мавлоно Муҳаммад Қози. Хукмдорга ўғитлар. Т., Шарқ, 1999, 7 б.

ham o'zi tuzib beradi. Bu rejaga ko'ra Mirzo Haydar va uning tarbiyachisi bir ishonchli odamning uyida yashirinishadi. Mirzo Haydarning otasining odamlaridan bo'lgan bir necha kishi esa o'sha kechasi otlarga minib shahar tashqarisiga ketishadi. Shu tariqa, «ular otda qochib ketishibdi» degan taassurot paydo bo'ladiyu, ta'qibchilar Mirzo Haydar va hamrohlarini shahar tashqarisidagi katta yo'llardan izlashadi. Shahardan izlash hech kimning xayoliga kelmaydi. Buxoroda o'n besh kun yashirilib turishganidan so'ng, Mavlono Muhammad Sadr Mirzo Haydarni olib eshakda boshqa tarafga qarab jo'naydi. Ular ko'p mashaqqatlar tortib Badaxshondagi Qal'ayi Zafarga etib borishadi. Bu qal'a va uning atrofidagi kichkina, yupun viloyatda Mirzo Haydarning xolavachchasi va Boburga ham ota, ham ona tarafidan qarindosh bo'lgan Mirzoxon hukmronlik qilardi. Badaxshonning boshqa obod viloyatlari koshg'arliklar va shayboniylar tomonidan egallangandi. Mirzo Haydarning Badaxshonga kelganidan xabar topgan Bobur bu viloyat notinchligi uchun tash-vishlanib, uni Kobulga o'z oldiga chaqirib oladi.

Muhammad Qozi nomi bilan mashhur bo'lgan Muhammad ibn Burhoniddin 851 (1447-48) yili Samarqandda tug'ilgan. Uning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar XVI asrda yaratilgan «Rashahoti ayn ul-hayot», «Tarixi Rashidiy», «Majmu' at-tavorix» kabi asarlarda mavjuddir. Bu asarlar mualliflari Muhammad Qozining zamondoshlari bo'lib, jumladan, «Majmu' at-tavorix» asari asosiy qismining muallifi Sayfiddin Axsikatiy uning muridi bo'lgan.

Bu manbalardan ma'lum bo'lishicha, Muhammad Qozi o'z zamonasidagi ilmlarni mukammal egallagan va so'fiylik yo'lini ixtiyor etgan. U naqshbandiya shayxlari silsilasida ko'zga ko'rinarli o'rin tutgan o'sha zamondagi eng yirik shayx Xoja Ahror valiyning (1404-1490) eng yaqin muridlaridan biri va o'z navbatida Maxdumi A'zam Dahbediy nomi bilan mashhur bo'lgan shayx Ahmad Xojagiy ibn Jaloliddin Kosoniyning (1464-1542) murshidi va ustози bo'lgan¹¹.

Xo'ja Ahrorga nisbatdan bildirilgan munosabat mustamlakachilik, sovetlar va mustaqillik davrlari mobaynida bir

¹¹ Кадырова М. Жития Ходжи Ахрара. Опыт системного анализа по реконструкции биографии Ходжи Ахрара и истории рода Ахридов. Т.: Рабочие документы IFEAK, 2007, с. 48

necha marotaba o'zgardi. O'tmishning taniqli tarixiy arbobiga nisbatan ushbu qarashlar har bir yangi davrda siyosiy va mafkuraviy shart-sharoitlardan kelib chiqib turlicha bo'lgan.

Xo'ja Ahrorni anglashdagi, uning faoliyatiga haqqoniy va holis baho berishdagi harakatlar shubhasiz mustaqilligimizni qo'lga kiritganimizdan so'ng yangi bosqichga ko'tarildi. Hurmatli Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek «Xo'ja Ahror Valiy o'z davrida 25-30 yil mobaynida Markaziy Osiyodagi xalqlarni birlashtirish, siyosatchilarning boshini qovushtirish orqali har xil to'qnashuvlarning oldini olish uchun bor kuch-g'ayratini sarflagan, uning yuksak obro'-e'tibori bunda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. «Shayxlar shayxi» deb nom olgan bu ulug' zotning gapini biror hukmdor, hokim, shahzoda ikki qilmagan. Nega deganda, xalq uni boshiga ko'targan. Biz ham bunday aziz ajdodlarimizni boshimizga ko'tarishga tayyormiz»¹².

Muhammad Qozi Xoja Ahror mulozimatida o'n ikki yil, ya'ni 1490 yili uning vafoti yuz berguncha bo'lgan. Shu davr mobaynida u Hirotga ham borib, hazrat Abdurahmon Jomiy bilan uchrashgan. Xoja Ahror vafotidan keyin Muhammad Qozi bir necha yil Toshkent va Buxoro shaharlarida yashagan. Shayboniyxon hukmronligi davrida (1500-1510) ham uning obro'-e'tibori yuqori bo'lib, Shayboniyxonning ukasi, o'sha paytdagi Buxoro hokimi Mahmud Sulton unga murid bo'lgan. 1512 yili Movarounnahrqa qizilboshlar bostirib kirganida Muhammad Qozi Andijon tarafga ketadi va Axsi shahrida o'mashib qoladi. Vafotidan oldinroq shayboniylardan bo'lgan Sevinchixon taklifi bilan Toshkentga boradi va 922 (1516) yili vafot etadi.

Roqim Samarqandiyning qalamiga mansub «Tarixi kasira» asarida yozilishicha Muhammad Qozining qabri Xoja Ahror (maqbarasi)ning oyog'i tomonidadir¹³.

¹² Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.- 23 б.

¹³ Валихўжаев Б. Хожа Аҳрори Вали. С., Зарафшон, 1993, 36 б.

Shu o'rinda bu zot haqidagi «Tarixi Rashidiy» asaridan olingan ma'lumotlarni keltirishni lozim topdik: «Hazrat Mavlononing ismi Muhammad ibn Burhoniddin edi. U kishining otasi Miskin Samarqandiy Qozi Imomiddinning yaqin kishilari jumlasidan bo'lgani sababli u Mavlono Muhammad Qozi nomi bilan tanilgan edi. Ilmlar tahsil qilganidan keyin u kishida Xudo yo'lida darvish bo'lmoq niyati tug'ildi. Ushbu niyat birla u Xuroson tarafga jo'nadi. U Samarqanddan chiqqanida qutblar qutbi, Ollohning suyukli bandasi, arboblar sardori, donolarning etugi Xoja Nosiriddin Ubaydulloh yo'ldagi bir manzilda turar edi. Hazrat Mavlono Eshonni ziyorat qildi. Eshon undan «Qaerga ketayapsiz?», – deb so'radi. Mavlono «Xurosonga», – deb javob berdi. Eshon yana so'radi: «Tahsil olish niyatida ketayapsizmi yoki boshqa niyat bilanmi?» Mavlonoga hamroh bo'lgan bir ilm tolibi dedi: «U kishining darvishlikka rag'batini ko'proqdir». Eshon «Bir muddat kutib turingiz», – dedi va bog'ning narigi tarafiga ketdi. Anchadan keyin u ikkita xat keltirdi. Bitta xat tavsifnoma bo'lib, unda Mavlono Muhammad Qozi Mavlono Sa'diddin Koshg'ariyning o'g'li Xoja Kalon huzuriga tavsiya etilgan edi. Boshqa xatda bu sharif va mo''tabar naqshbandiya tariqatida qabul qilingan darvishlik hayoti qoidalarini yozgan edi va uni ham Mavlonoga berdi. Mana uning nusxasi: «Ibodatning mohiyati Ollohning ulug'ligini his etish tufayli dilda itoat, e'zoz, shikastanafslik va niyoz paydo bo'lishidadir. Bundayin baxtning zohir bo'lmog'i muhabbatga bog'liqdir. Muhammad alayhissalomga ummat bo'lmoq uchun mutoibat tariqini bilmoq lozim. Ammo diniy ilmlarni egallamasdan bunga erishib bo'lmaydi. Ushbu zarurat tufayli diniy ilmlar bilimdonlari bo'lgan olimlarga mulozim qilmok kerakdir. Ammo ilmni dunyoviy maishat va mansabga erishish uchun vositaga aylantiruvchi olimlar muloqotidan saqlanish zarur. Faqat taqvodor olimlar topilmagandagina zaruratan bu toifa odamlardan maqsadni hosil etmok mumkin. Shuningdek, raqs va samo' qiladigan va qo'liga nima tushsa qaytarmay eyaveradigan darvishlar suhbatidan saqlanish kerak. Yana musulmonlar jamoasi va sunnat ahlining aqida va mazhabiga nuqson etishiga sabab bo'luvchi maorif va tavhidni eshitishdan tiyilish lozim. Ilm tahsil qilmoq haqiqat

ma'rifatining nurlari zohir bo'lmoqlig'i uchundir va bu Muhammad Rasululloh sallallohu alayhi vasallamga ummat bo'lmoqlikka bog'likdir. Vassalom».

Ul kishi (Muhammad Qozi)ning tabarruk asarlaridan biri bo'lmish «Silsilat ul-orifin»da shunday deb yozilgan: «Shunisi ajablanarliki, ushbu (nasihatlar)ga qaramay, menda Xurosonga safar qilishga bo'lgan rag'bat kamaymadi. Eshon hazratlaridan ruxsat olib Xuroson tarafga jo'nadik. Ammo yo'lda bir voqea yuz berdi va safarni davom ettirish mutlaqo imkonsiz bo'lib qoldi. Orqaga qaytib, Eshonning mulozimatiga musharraf bo'ldik».

Muhammad Qozi uzoq mudlat hazrat Eshonning xos oshxonasiga mutasaddi bo'ldi. Irodatining g'ayratidan shunday xizmat qilardiki, oshpazlik anjomlari va masallikdarini ko'tarib Eshonning hidoyatga boshlovchi uzangisi yonida piyoda borardi. Bora-bora Eshonga butunlay yaqin bo'lib oldi. Chunonchi, Eshon huzuridagi oliy majlislarning ko'pchiligida ulug' olimlar ko'zi o'ngida hazrat Ubaydulloh Mavlonoga murojaat qilardi. Barcha ishlarda unga to'la ishonardi. Eshonning unga bo'lgan oshkora lutfi va turli tarzdagi mehri-bonchiliklari shu darajaga etdiki, ulug' olimlar, yaqin suhbatdoshlar va hazrat Eshonning katta o'g'illarining hasadiga sabab bo'ldi. Bu hol Mavlono Muhammadga og'ir botdi va u hazrat Eshonning boshqa bir muridi Mavlono Muhammad Amin bilan Xurosonga ketmoqchi bo'ldi. Ular so'fiylik hayoti qoidalari bizga hazrat Eshondan bir qadar ma'lum bo'ldi, degan qarorga kelishdi. So'fiylar orasida shunday gap yuradi: «Xuroson havosi pirdan olinadigan tarbiyaning yarmini beradi. Qolgan yarmini Mavlono Abdurahmon Jomiy beradi. Shunday qilib, Xurosonda so'fiylik maqomiga to'la erishmoq mumkin». «Silsilat ul-orifin»dagi hazrat Eshonning g'ayrioddiy ishlari tasvirlangan qismida shunday yozilgan: «Xurosonga borish niyati hali faqat ko'nglimda paydo bo'lgan kunlarning birida hazrat Eshonning huzuriga kirdim.

Hazratning saodatli nazari kaminaga tushdi. So'ngra takror nazar tashlab dedi: «O'tkir nazarimizdan maqsad neligini bilurmisan?» Men «Buni Oллоh, nabiylar va valiyalar bilur», – dedim. Eshon dedi: «Men sizlarning ahvolingizga nazar soldim-u, lekin sizlarni sabot ko'chasida ko'rmayapman». Shundan so'ng yana

dedi: «Tushimda ko'rdimki – o'z kashfiyotlarini tushga yo'yish hazrat Eshonga odat edi – Mavlono Muhammad shunday bir joyda uy qurishni xohlaydiki, u joy bizniki emas va bizdan tashqarida ham emas. Biroq bu uy mustahkam bo'lmaydi». Shunga qaramay Xuroson safari amalga oshdi. Mavlono Muhammad Xurosonga ijazatsiz jo'nab ketdi. U Xurosonda olti oy bo'ldi va doimo Mavlono Abdurahmon Jomiy bilan suhbat qurur edi. Ammo unda hazrat Eshonga xizmat qilish istagi shu qadar kuchli ediki, yana qaytib Eshonning mulozimatiga keldi.

«Silsilat ul-orifin»da shunday yozilgan: «Toshkandda hazrat Eshonning mulozimatiga erishdim. Qolgan umrimni hazratning sayislariga ko'maklashib, otxonadagi otlarni parvarishlab o'tkazmoqqa qaror qilgan edim. Shu qarorga kelib, borib bir burchakda o'tirgan edim, bir kishi kelib meni chaqirdi va «Eshon hazratlari sizni chaqirayapti», – dedi. Hushimdan ketib qolishimga bir baxya qoldi. Qattiq xijolat chekib bordim. Onhazrat men bilan quyuq so'rashib, shunday kutib oldiki, go'yo kaminadan hech bir noloyiq ish sodir bo'lmagan, aksincha, maqtovga sazovor bir yumushni qoyillatib bajargandek edim. O'zining yaxshi xislatli zotiga munosib tarzda meni oldingidan ham ko'proq lufu inoyatlariga musharraf etdi. Shunga qaramay peshonamni xijolat teri qoplagan edi. Bundan so'ng men hamisha chekkaroqda yurardim. Hayiqmasdan Eshonga yuzma-yuz duch kelolmasdim. Eshonning haqiqatni bayon qiluvchi tili ma'rifat va haqiqatdan so'z ochgan paytda, hazratning nurli xotiri mening ul mo''tabar nutqni eshitish baxtiga musharraf bo'lmog'imni istabdi va hazrat «Mavlono Muhammad qaerda?», – deb so'rabdi. Majlis ishtirokchilari, balki do'stlar arz etibdi-lar: «U hamisha tashqarida yuradi. Uni majlisga kirmoqqa undasak, shunday dedi: «Men tomondan sodir bo'lgan shuncha ishlardan so'ng Eshonning yaqinida yurib, uzoqdan bo'lsa-da, ul kishining chehrasini ko'rmoq saodati menga etarli emasmi!» Shu so'zlarni aytgach, u nadomat va qayg'u bulutidan yomg'ir tomchilari, ya'ni ko'z yoshlarini shashqator qiladi». Hazrat Eshon buyuribdi: «Boring va unga aytingki, biz ilgarigi tarzda uning hamisha huzurimizda bo'lmog'ini xohlaymiz. Undan biron ish sodir bo'lgan bo'lsa, biz uni kechirdik, yo agar gunohkor biz bo'lsak, u ham bizni kechirsin va huzurimizga kelsin». Eshonning lutflari da'vati bu darajaga etgach, ul

malakoshiyon ostonaning xizmatiga oldingidan ham kuchliroq g'ayrat bilan kirishdim va ul saxovat dengizdan shunchalik lutfu inoyatlar ko'rdimki, buni men hargiz tasavvur ham qilmagan edim. Bir kuni Eshon dedi: «Futuvvat ahlining odati shuki, aybdor odamlarni uzr so'rashga majbur etmaydilar». Darhaqiqat, Eshon kamina bilan xuddi shunday muomala qildilar. Olloh unga yaxshilik bilan qaytarsin.»

Ammo hazrat Eshon irshod oyog'ini hayot pillapoyasiga mahkam qo'yar, hazrat Mavlono Muhammad Qozi irodat boshini o'sha pillapoyaga qo'yib Eshonga yaqinlik martabasining cho'qqisida edi. Ul zamon sultonlariga shu narsa odat bo'lgan ediki, ulardan har biri Eshonning bir muridi bilan aloqa bog'lashga intilar va u orqali o'z orzu-iltimoslarini etkazib, hazrat Eshonning diqqat-e'tiborini eng yuqori marhalarini marhalaga ko'tarardilar. Chunonchi, Sulton Abusaid Mirzo Mavlono Qosim bilan, Sulton Ahmad Mirzo esa Mavlono Xoja Ali bilan aloqa bog'lashga intilar va shu tarzda barcha sultonlar bu odatga amal qilishardi. Sulton Mahmudxon hazrat Mavlono Muhammad Qozi bilan aloqa o'rnatgan edi. Kamina hazrat Mavlononing fasohatli nutqini eshitganimda, ul kishi shunday degandi: Men Sulton Mahmudxonni hazrat Eshon oldida maqtadim va so'z orasida uni Eshonga tavsiya etdim. Hazrat Eshon dedi: «Ha, Sulton Mahmudxon qobil yigitdir. Ammo bir nuqsoni uning taraqqiy etmog'iga xalal beradi. Shogird va murabbiy munosabati shunday bo'lmog'i lozimki, murabbiy nimani buyursa, shogird shuni qilishi shartdir va u o'z aqli va istagi talabiga amal etmasligi kerak. Xuddi lochin kabi nimaning izidan uchirishmasin, quvvati etish-etmasligidan qat'i nazar, borib o'shanga yopishishi kerak. Bu ish o'zi bo'ladimi yoki yo'qmi – bu haqda mulohaza etmasligi darkor». Shu sababga ko'ra Sulton Mahmudxon odamlar undan kutishgan darajada taraqqiy etmadi».

Bu muqaddimadan maqsad shu munosabat bilan hazrat Mavlono Muhammad Qozining hazrat Eshon quddisa sirrahuning vafotidan so'ng Toshkandga borganini ko'rsatishdir. Hazrati Mavlononing muborak tashrifiga aholi sadoqat va ixlos izhor etib, hurmat va ehtirom ko'rguzishdi. Toshkand vayron qilinganida ul kishi Buxoroga ko'chib ketdi. O'sha zamonda Buxoroda

Shohibekxonning ukasi va Ubaydullaxonning otasi bo'lmish Mahmud Sulton Shohibekxon nomidan hukmronlik etardi. U hazrat Mavlononing mulozimati baxtiga musharraf bo'lib, uning sharif suhbatiga ishtiyoq ko'rguzdi va ixlos izhor etib bir qish davomida Mavlonodan saboq oldi. Hazrat Mavlononing ishonchli odamlaridan eshitishimcha, u shunday degan ekan: «Matalda «Odamlar o'z podshohlarining diniga sig'inadilar», deyilganidek, Mahmud Sulton menga ixlos qo'ygach, darvishlar orasida mashg'ulotlarga chunonam ishtiyoq paydo bo'ldiki, bunaqa lazzatga boshqa hech muyassar bo'lmadim».

Ana shu bayon qilingan sabablarga ko'ra hazrat Mavlono o'sha paytdan beri Buxoroda edilar. Otam Xurosonga ketib, u erda shahid bo'lgandan so'ng kamina boshidan kechirgan zikr etilgan va qilinajak voqealar paytida hazrat Mavlononing kaminaga himmat bilan yordam bergani ham Buxoroda bo'lgan edi. To 916 (1510-1511) yilgacha hazrat Mavlono Buxoroda edi. Ollohning la'natiga uchragur qizilboshlar istilosi yuz bergach, u Buxorodan Andijon va Axsiga jo'nab ketdi. Mavlono o'sha hududda yashamoqni niyat etgandi. Uning qutlug' tashrifi sharofati bilan o'sha hududdagi juda ko'p xalq Olloh rahmat qilgur naqshbandiya xojalari tariqatining to'g'ri yo'liga kirishga musharraf bo'lib oliy martabalarga etishdilar. Bu ishning barakati hanuz ul viloyatda boqiydir. So'fiylikda kamolot darajasiga etishgan odamlar xaloyiqni chin yo'lga hidoyat etmoqqa mashg'uldirlar. Bu saodatli jamoatning sharhi hazrat Maxdumiy Nuran hayoti bayon qilinganida keltirilajakdir. Insho Ollohu taolo. Hazrat Mavlono Muhammad Qozi ahvolining qol-gani o'z joyida yozilajakdir, inshoolloh...

Maxdumimiz va sayidimiz, irshod ahlining muro-jaatgohi hazrat Mavlono Muhammad Qozining barka-mol hayoti haqida ushbu kitobda oldin ham bir necha bor yozgan edik. Hazrat Mavlono Aysi va uning atroflarida qaerki saodatli ko'ngliga xush yoqsa, o'sha erda bo'lar va xaloyiq uning suhbatidan bahramand edi. O'sha hududda ul kishining e'tiqodmand va muxlislari juda ko'payib ketgach, ularning har biri ajoyib va g'aroyib voqealarning shohidi bo'ldi.

Onhazratning muxlis va e'tiqodmandlari uning vafoti tarixini «Nakdi Xoja Ubaydullo» (922/1516 yil) deb topishdi. Ul kishining umri sharifi oltmishdan

o'tib, etmishga yaqinlashgan edi. Zohiriy va botiniy ilmlarni mukammal egallagandi. Ul kishining tabarruk shaxsi jami fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan edi. Hazratning mo'tabar va foydali asarlari bor. Ul kishining sharif risolalari tariqat ahli uchun dasturilamaldir. «Silsilat ul-orifin» shular jumlasidan bo'lgan juda yaxshi bir kitobdir. Bu kitobga uch qismda tartib berganlar. Birinchi qism shayxlik odobi va muridlik shartlari haqidadir. Ikkinchi qism hazrat Eshon Xoja Ubaydullohning hayoti sharhi va majlislarda hazrat Eshonning valiylik bayon etuvchi tilidan aytilgan ma'rifat haqiqatlari hamda ul kishining ba'zi bir horiqulodda ishlari va karomatlarini o'z ichiga oladi. Uchinchi qism ba'zi avliyo odamlar tomoni-dan sodir bo'lgan g'aroyib ishlar va karomatlardan iboratdir. Bu shunday bir kitobki, uning vasfiga til ojizdir. Barcha so'fiylarga manzur bo'lgan bu kitob ellik bobdan iborat.

Hazrat Mavloni Muhammad Qozining bu kitobdan boshqa risolalari ham bordir. Masalan, kamina majlislar paytida gustoxlik qilib ul kishidan ba'zi masalalarni tushuntirib berishlarini so'raganimda, bu masalalarni foydali nakdlar bilan bayon etib qog'oz betiga tushirgan edilar. Ammo bu risolani topshirib kaminani sarafroz qilmoqqa fursatlari bo'lmagan edi. Hazratning vafotidan so'ng ul kishining munosib farzandi va sodiq izdoshi maxdumzoda Mavloni Qutbiddin Ahmad uni kaminaga jo'natdi. Bu risola matni to'la keltiriladi. Men ojiz va imkoni-yatlari cheklangan banda aniq bilamanki, g'aflat qalami va jaholat siyohi bilan yozilayotgan bu musavvada sohibnazarlar nazdida biron e'tiborga ega emas. U shoyad ana shu tabarruk risola sharofati bilan sohibdillar nazariga sazovor bo'lar va ular kamina qalamining nuqsonlari va tahririning zaifligini afv etagi bilan yoparlar. Qisqacha tarix kitobimizda yo'l qo'yilgan xato hamda qusurlarni, ayblarni kechiruvchi va o'chiruvchi Xudoyi taolo bu risolaning rostligi va haqiqiyliги yuzasidan kechirar»¹⁴.

Muhammad Qozi vafot etishidan sal ilgari Mirzo Haydarning savollariga javob tariqasida bir asar bitadi, ammo uni shogirdiga topshirishga ulgurmasdan

¹⁴ Мирза Мухаммад Хайдар. Та'рих-и Рашиди. Введ., пер. с персидского А.Урунбаева, Р.П. Жалиловой, Л.М. Епифановой. Примечания и указатели Р.П. Жалиловой и Л.М. Епифановой. – Т.: Фан, 1996.- с. 321-327

olamdan o'tadi. Uning o'g'li Qutbiddin Ahmad risolani Mirzo Haydarga jo'natadi. Mirzo Haydar Hindistonga ustozining risolasini ham o'zi bilan olib ketgan va «Tarixi Rashidiy» asarini yozganida unda, o'z e'tirofiga ko'ra, risola matnini to'la va aynan keltirgan. Muhammad Qozi qalamiga mansub bu risola davlatni idora qilish, podshohlarning odobi va shu kabi masalalarga bag'ishlangan.

II Bob. “Tarixi Rashidiy” – O'rta Osiyo tarixiga oid manba

2.1. Asarda keltirilgan tarixiy manbalar

“Tarixi Rashidiy” asarida o'sha davr madaniy-ma'naviy hayotiga oid ma'lumotlar ham ko'p bo'lib, mashhur so'fiylar, shoirlar, olimlar, san'atkorlar hayoti va ijodi haqida g'oyat muhim ma'lumotlar keltirilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, unda o'rni bilan ayrim kishilarning xatlari, asarlari to'liq keltirilgan.

Masalan Xoja Ahrorning bir xatini shunday keltiriladi: «Hazrat Mavlononing ismi Muhammad ibn Burhoniddin edi. U kishining otasi Miskin Samarqandiy Qozi Imomiddinning yaqin kishilari jumlasidan bo'lgani sababli u Mavlono Muhammad Qozi nomi bilan tanilgan edi. Imlar tahsil qilganidan keyin u kishida Xudo yo'lida darvish bo'lmoq niyati tug'ildi. Ushbu niyat birla u Xuroson tarafga jo'nadi. U Samarqanddan chiqqanida qutblar qutbi, Ollohning suyukli bandasi, arboblarning sardori, donolarning etugi Xoja Nosiriddin Ubaydulloh yo'ldagi bir manzilda turar edi. Hazrat Mavlono Eshonni ziyorat qildi. Eshon undan «Qaerga ketayapsiz?», – deb so'radi. Mavlono «Xurosonga», – deb javob berdi. Eshon yana so'radi: «Tahsil olish niyatida ketayapsizmi yoki boshqa niyat bilanmi?» Mavlonoga hamroh bo'lgan bir ilm tolibi dedi: «U kishining darvishlikka rag'batini ko'proqdir». Eshon «Bir muddat kutib turingiz», – dedi va bog'ning narigi tarafga ketdi. Anchadan keyin u ikkita xat keltirdi. Bitta xat tavsifnoma bo'lib, unda Mavlono Muhammad Qozi Mavlono Sa'diddin Koshg'ariyning o'g'li Xoja Kalon huzuriga tavsiya etilgan edi. Boshqa xatda bu sharif va mo'tabar naqshbandiya tariqatida qabul qilingan darvishlik hayoti qoidalarini yozgan edi va uni ham Mavlonoga berdi. Mana uning nusxasi: «Ibodatning mohiyati Ollohning ulug'ligini his etish tufayli dilda itoat, e'zoz,

shikastanafslik va niyoz paydo bo'lishidadir. Bundayin baxtning zohir bo'lmog'i muhabbatga bog'liqdir. Muhammad alayhissalomga ummat bo'lmoq uchun mutoibat tariqini bilmoq lozim. Ammo diniy ilmlarni egallamasdan bunga erishib bo'lmaydi. Ushbu zarurat tufayli diniy ilmlar bilimdonlari bo'lgan olimlarga mulozimati qilmoq kerakdir. Ammo ilmi dunyoviy maishat va mansabga erishish uchun vositaga aylantiruvchi olimlar muloqotidan saqlanish zarur. Faqat taqvodor olimlar topilmagandagina zaruratan bu toifa odamlardan maqsadni hosil etmoq mumkin. Shuningdek, raqs va samo' qiladigan va qo'liga nima tushsa qaytarmay eyaveradigan darvishlar suhbatidan saqlanish kerak. Yana musulmonlar jamoasi va sunnat ahlining aqida va mazhabiga nuqson etishiga sabab bo'luvchi maorif va tavhidni eshitishdan tiyilish lozim. Ilm tahsil qilmoq haqiqat ma'rifatining nurlari zohir bo'lmoqlig'i uchundir va bu Muhammad Rasululloh sallallohu alayhi vasallamga ummat bo'lmoqlikka bog'likdir. Vassalom»¹⁵.

«Tarixi Rashidiy» muallifi o'z kitobida ko'pgina diniy arboblari va ularning asarlariga o'rin ajratadi. Ularning faoliyatini el-yurt xaloskorligini ta'minlashda, ma'naviy-ma'rifiy jabhada shohu gadoga teng ta'sir o'tkazishda kuzatadi. O'z e'tiqodi manbai va shaxsiy yutuqlarini shu piri murshidlar faoliyatlari sharofatidan ko'radi. Biz biror tarixiy asarda diniy ustozlarga bu darajada keng o'rin ajratilganini bilmaymiz. Asarda shuningdek Jomiy hayotining ajoyib sahifalari juda izchillik bilan bayon etilgan, uning risolasi matni to'lig'icha keltirilgan.

Asrlar davomida Sharq o'lkalarida davlatni idora etish qoidalarini bayon qiluvchi, podshohlarni odil siyosat yurgizishga undovchi ko'plab katta-kichik asarlar yaratilgan. Ba'zi mualliflar mamlakatni boshqarish masalalariga o'z asarlarining ayrim boblarini bag'ishlagan bo'lsalar, boshqalari bu mavzuda alohida asarlar yozganlar. Masalan, XI asrda yashab faoliyat ko'rsatgan ulug' allomalar Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asarlari Sharq mamlakatlarida g'oyat mashhur bo'lgan. Undan keyingi davrlarda ham donishmand kishilar bu mavzuda qalam tebratganlar. Ular, asosan, qaysidir jihatdan o'z davrining hukmron doiralariga yaqin odamlar bo'lib, o'z asarlarini

¹⁵ Мавлоно Муҳаммад Қози. Ҳукмдорга ўғитлар. Т., Шарқ, 1999, 11 б.

aksar hollarda biron podshoh, shahzoda yo hokimga bag'ishlab yozganlar. Shunday asarlardan biri Mirzo Muhammad Haydarning ustози Muhammad Qozi qalamiga mansub.

Muhammad Qozining asosiy asari «Silsilat ul-orifin va tazkirat us-siddiqin» bo'lib, ko'pincha qisqacha «Silsilat ul-orifin» deb yuritiladi. Bu kitob 1504 yili yozilgan. Asarning bir qancha qadimiy va so'nggi asrlarga oid qo'lyozma nusxalari bizning davrimizgacha etib kelgan. Shundan olitasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda. «Silsilat ul-orifin» Xoja Ahrorning muridi va kuyovi Mir Abdulavval Nishopuriyning «Masmuot», Faxriddin Ali Safiyning «Rashahoti ayn ul-hayot» va muallifi noma'lum «Manoqibi Xoja Ahror» asarlari kabi Xoja Ubaydulloh Ahror hayoti va faoliyatini yorituvchi asosiy manbalar sirasiga kiradi. Sovet davrida rus olimasi O.D. Chexovich bu manbalar xususida umumiy tavsifnoma bergan bo'lsa, mustaqillik yillarida o'zbek olimasi Muxlisabonu Qodirova ularni bir-biriga qiyosiy o'rganib batafsil tahlil qildi va nashr etdi¹⁶.

Muhammad Qozi vafot etishidan sal ilgari Mirzo Haydarning savollariga javob tariqasida bir asar bitadi, ammo uni shogirdiga topshirishga ulgurmasdan olamdan o'tadi. Uning o'g'li Qutbiddin Ahmad risolani Mirzo Haydarga jo'natadi. Mirzo Haydar Hindistonga ustozining risolasini ham o'zi bilan olib ketgan va «Tarixi Rashidiy» asarini yozganida unda, o'z e'tirofiga ko'ra, risola matnini to'la va aynan keltirgan. Muhammad Qozi qalamiga mansub bu risola davlatni idora qilish, podshohlarning odobi va shu kabi masalalarga bag'ishlangan. Risolaning alohida ko'chirilgan nusxasi bizga ma'lum emas. XVI asr muarrix va davlat arbobi Mirzo Muhammad Haydarning ta'kidlashi va risolaning o'zida aytilishicha, Muhammad Qozi uni o'z shogirdi Mirzo Haydarning savollariga javob tariqasida bitgan: Ul kishining sharif risolalari tariqat ahli uchun dasturilamaldir. «Silsilat ul-orifin» shular jumlasidan bo'lgan juda yaxshi bir kitobdir. Bu kitobga uch qismda

¹⁶ Кадырова М. Жития Ходжи Ахара. Опыт системного анализа по реконструкции биографии Ходжи Ахара и истории рода Ахарилов. Т.: Рабочие документы IFEAK, 2007

tartib berganlar. Birinchi qism shayxlik odobi va muridlik shartlari haqidadir. Ikkinchi qism hazrat Eshon Xoja Ubaydullohnin hayoti sharhi va majlislarda hazrat Eshonning valiylik bayon etuvchi tilidan aytilgan ma'rifat haqiqatlari hamda ul kishining ba'zi bir horiqulodda ishlari va karomatlarini o'z ichiga oladi. Uchinchi qism ba'zi avliyo odamlar tomoni-dan sodir bo'lgan g'aroyib ishlar va karomatlardan iboratdir. Bu shunday bir kitobki, uning vasfiga til ojizdir. Barcha so'fiylarga manzur bo'lgan bu kitob ellik bobdan iborat.

Hazrat Mavlono Muhammad Qozining bu kitobdan boshqa risolalari ham bordir. Masalan, kamina majlislar paytida gustoxlik qilib ul kishidan ba'zi masalalarni tushuntirib berishlarini so'raganimda, bu masalalarni foydali nakdlar bilan bayon etib qog'oz betiga tushirgan edilar. Ammo bu risolani topshirib kaminani sarafroz qilmoqqa fursatlari bo'lmagan edi. Hazratning vafotidan so'ng ul kishining munosib farzandi va sodiq izdoshi maxdumzoda Mavlono Qutbiddin Ahmad uni kaminaga jo'natdi. Bu risola matni to'la keltiriladi. Men ojiz va imkoni-yatlari cheklangan banda aniq bilamanki, g'aflat qalami va jaholat siyohi bilan yozilayotgan bu musavvada sohibnazarlar nazdida biron e'tiborga ega emas. U shoyad ana shu tabarruk risola sharofati bilan sohibdillar nazariga sazovor bo'lar va ular kamina qalamining nuqsonlari va tahririning zaifligini afv etagi bilan yoparlar. Qisqacha tarix kitobimizda yo'l qo'yilgan xato hamda qusurlarni, ayblarni kechiruvchi va o'chiruvchi Xudoyi taolo bu risolaning rostligi va haqiqiyliqi yuzasidan kechirar»¹⁷.

Muhammad Qozi o'z risolasida davlatni idora etishda podshohlar amal qilishi lozim bo'lgan shartlarni bayon etishidan oldin, qaysi bir gunohlar og'ir gunoh deb hisoblanishi haqida mulohaza yuri-tadi. Chunonchi, nohaq odam o'ldirish, etimning moli-ni nohaq olish, yolg'on guvohlik berish, boshqa odamlarni gunoh ishga undash kabilarni u og'ir va kechi-rilmas gunohlar deb aytadi. Risolaning bu qismini yozishda Muhammad Qozi, o'zi e'tirof etganidek,

¹⁷ Мирза Мухаммад Хайдар. Та'рих-и Рашиди. Введ., пер. с персидского А.Урунбаева, Р.П. Жалиловой, Л.М. Епифановой. Примечания и указатели Р.П. Жалиловой и Л.М. Епифановой. – Т.: Фан, 1996.- с. 324

Payg'ambar sallallohu alayhi vasallamga nisbat berilgan naqlar va Shayx Abu Tolib Makkiyning «Qut ul-qulub» («Qalblar o'zig'i») nomli kitobidan foydalangan.

Risolaning asosiy qismida mamlakatda tartib va barqarorlik bo'lishi uchun podshoh amal qilishi lozim bo'lgan muhim shartlar, podshoh va fuqarolarning o'zaro munosabatlari, davlat siyosatining o'ziga xos nozik va murakkab tomonlari haqida mulohaza yuritiladi. Podshohlarni odil siyosat yurgizishga undab aytilgan o'gitlar va o'tmish hukmdorlari hayotidan mavzuga mos ba'zi misollar keltiriladi. «Agar kimningki zimmasiga bandalarning ishlarini yo'lga qo'yish vazifasi tushsa va unga davlatni boshqarmoq muyassar bo'lsa, – deb yozadi Muhammad Qozi, – u shuni bilsinki, podshohlikning o'z shartlari bo'lib, bu shartlarga rioya etilmasa, saltanatning diniy va dunyoviy ishlarida tartib bo'lmaydi. Shuningdek, podshoh oldida mamlakat fuqarosining muayyan huquqlari bo'lib, podshoh ularni ta'min etmasa, u oxirat azobidan najot topa olmaydi». Shundan so'ng podshohlik shartlari – jami o'nta shart nasihatlar va misollar bilan bayon qilinadi.

Mazkur risola, shubhasiz, o'rta asrlardagi mutafakkir kishilarning davlatchilik, siyosat, podshoh va fuqaro munosabatlari masalalariga doir qarashlari va adolatli hukmdor haqidagi tasavvurlarini o'rga-nishda muhim ahamiyatga egadir. Muhammad Qozining «podshoh davlat va mamlakatiga tahdid qiladigan xa-tardan g'ofil qolmasligi kerak» degan so'zlari va boshqa ba'zi o'gitlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotgan emas. Risola keyingi asrlarda ham shuhrat qozonib, mashhur mutafakkir olimlar va davlat arboblari undan foydalanganlari haqida dalil-isbotlar mavjud. Masalan, XIX asrda yashab ijod etgan atoqli donishmand va adib Ahmad Donish (1827-1897)ning eng yirik kitobi – «Navodir ul-vaqoe'»ning «Saltanat fazilati va sultonlarning muomalasi» bobi Muhammad Qozi asariga tayanib yozilgani, garchi Ahmad Donish bunga ishora etmagan bo'lsada, ma'lum bo'ladi. Ahmad Donish ham podshohlar amal qilishi lozim bo'lgan o'nta shartni bayon etar ekan, ko'p hollarda Muhammad Qozi risolasidagi shartlar va ayrim misollarni juz'iy o'zgarishlar bilan takrorlaydi hamda o'zi ham boshqa misollar keltirib masalani kengaytiribroq bayon qiladi. Albatta, o'zidan oldin o'tgan adiblar ijodidan erkin foydalanish, ularning asarlaridan zarur joylarni

ba'zan nomini ko'rsatib, ba'zan ko'rsatmay, qayta ishlab yoki aynan o'z asarlarida foydalanish o'tmish adiblari uchun oddiy va tabiiy bir hol hisoblangan¹⁸.

Muhammad Qozining mazkur risolasi kiritilgan bob «Tarixi Rashidiy» asarining O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan XVII asrga oid 1430 raqamli noyob bir qo'lyozma nusxasidan taniqli olim Asomiddin O'rinboev tomonidan tarjima qilingan. Risola sarlavhasiz bo'lgani uchun, mazmunidan kelib chiqqan holda «Hukmdorga o'gitlar» deb nomlangan. Uni to'liq holda kitobxonga takdim etishni lozim topdik:

«Hamdu sano Oллоhgakim, o'zi yaratgan mavjudotlardan eng ulug'i bo'lmish insonlar toifasiga haqiqat va irfon nasimining bo'ylari bilan quvvat berib, ularni g'aflat va umidsizlik zulmatidan qutqardi. Ularning qalbini haqiqat va hidoyat nurlari bilan yoritdi. Unga salovotlar bo'lsinkim, barcha odamlar va boshqa toifalar uchun o'z rasulini jo'natib, uning ishiga oyatlar shohidligi va Qur'on dalillari bilan madad berdi. Unga, uning avlodiga va sahobalariga, barcha ilm va iymon ahliga Oллоhning rahmati bo'lsin.

Endi uzlat va benomlik burchagining faqiru haqiri Muhammad Qozi nomi bilan ma'lum bo'lgan Muhammad ibn Burhoniddin shunday deydi: Bir kuni ul jamshidsifatli shahzoda, ya'ni faridunfazilatli kamyob xoqon, mamlakatlarni fath etuvchi dindor hukmdor, ulug'vorlik va shon-shavkat osmonining quyoshi, iqbol daraxtining mevasi, shuhrat olamining joni, obidlar osudaligi va davlat obodligining vositasi, shijoat maydonining chavandozi, saodat ko'kinging to'lin oyi, zaiflar madadkori va olimlar homiysi, do'stlarni avaylab, dushmanlarni yakson etuvchi saltanat qadrshunosi, Oллоhning soyasi va odil hokim Muhammad Haydar ibn Muhammad Husayn Ko'ragon, alloh uning mulki va saltanatini abadiy qilsin, hamda uning o'z sodiq do'stlariga bo'lgan yaxshilik va ehsonlarini ziyoda etsin, nazm:

Ba haqqi nabiy va ba sirri valiy,

Ki dastash qaviy bodu qadrash jaliy.

Zi ta'siri ajromi ulviy zavol

Mabinad in xonadoni jalol.

¹⁸ Мавлоно Муҳаммад Қози. Ҳукмдорга ўғитлар. Т., Шарқ, 1999, 9 б.

Muluki jahon bod farmonborash,
Zamona mute'u falak chokarash.
Ba fazli Xudo dar riyosi jinon
Az u bod ruhi padar shodmon
Jahon to buvad chun alo neknom
Bimonad andar jahon, vassalom.

(Nabiy haqqiyu valiy sirri uchun
Qo'li quvvatliyu qadri oily bolsin.
Osmoniy jismlarning ta'siridan
Bu shavkatli xonadon zavol topmasin.
Jahon maliklari farmoniga bo'isunib,
Zamona unga itoatkor va falak choker bo'lsin.
Alloh fazli bilan jannat bogida
Otasining ruhi undan shod bo'lsin.
Jahon turguncha ushbu yaxshi nom bilan
Jahon ichra qolsin omon, vassalom).

ushbu oliynasab shahzoda majlisida saltanatni boshqarmoq qoidalari haqida bir risola bitmoqqa jazm etdim. Binobarin, ushbu ojiz qalam bilan og'ir gunohlar va olimu hakimlarning saltanatni idora qilmoq xususidagi so'zlaridan bir necha satr bitilajakdir. Onhazratning cheksiz lutfi va nihoyasiz inoyatidan umidvormankim, o'zining podshohona mehribonligi tufayli bu darvishona tuhfaga ayblarni bekituvchi rozilik ko'zi bilan qaragay. Sodiq do'stlar qadamining ojizligi va duogo'ylar qalamining xatolari ustiga «Sitamdiydalar so'zini eshitib nuqsonlarini kechirmoq komil insonlar xislatlaridandir» deyilganidek, afv raqamini chekajakdir. Haq subhonahu ul davlat arbobini zamona ofati va kulfatlari, hodisalari girdobidan o'z panohida asrasin. Zamonning chopqir oti unga rom bo'lsin va hamisha ojiz ra'iyat, xizmatchi fuqaro va darvishlar boshi ustida uning davlati quyoshi yarqirab nur sochib tursin va saodati soyasi poydor bo'lsin.

Darhaqiqat, haqiqiy podshoh foniy dunyoning davlatiga bog'lanmagan kishidir. Chunki u abadiy emas, balki o'tkinchidir. Davlat bu adolat va ehsonning rivojidir. Iymon davlati haqida to'xtovsiz so'zlash mumkin. Yana og'ir gunohlar, saltanatni idora etmoq shartlari va boshqa masalalarga qaytamiz. G'ayb sirlarini kashf etuvchi ulug'lar va etuk mushohadachi erlar – barchasi basharni yaratmokdan maqsad ikki olam Xudosa muhabbat deb biladilar. Agar banda bu dunyodan ketayotganida o'zi bilan birga Olohga bo'lgan muhabbatini olib borolsa, bundan ham kattaroq davlat yo'qdir. Qalb zamini gunohlar tikani va xashagidan poklansa-yu, muhabbat urug'i Oloh ruhlarini muqaddas etur payg'ambarlar sunnati qonuniga ko'ra zohidlik va mujohidlik suvi bilan sug'orilsa, u taraqqiy topib ishq martabasiga etadi. Nimaiki ma'shuqaga taalluqli bo'lmasa, butunlay kuyib ketadi. N a z m:

Ishq on shu'la ast, ki chun barfuruxt,
Harchi juz ma'shuq boqi jumla so'xt.
Shod bosh, ey ishq xush savdoyi mo,
Ey, tabibi jumla alanhoyi mo,
Ey, davoyi naxvat va nomusi mo,
Ey, tu Aflotun va Jolinusi mo.

(Ishq shunday shu'laki, u yongach
Ma'shuqadan boshqa nima bo'lsa barchasi kuyib ketadi.
Ey bizning otashin ishqimiz, shod bo'lgin,
Sen bizning barcha dardlarimizga tabibsan.
Sen bizning qadr va nomusimiz davosi,
Sen bizning Aflotun va Jolinusimizsan).

Endi, azizim, shuni bilib qo'yki, og'ir gunohlar haqida bir-biridan tafovut qiladigan fikrlar mavjud. Ba'zi birovlar Payg'ambar sallallohu alayhi vasallamga nisbat berib naql qiladilarki, ul hazrat aytishicha, og'ir gunohlar ettitadir.

Birinchisi, Ollohga shak keltirmoq bo'lib, bundan Xudo saqlasin. Ikkinchisi – nohaq odam o'ldirmoq, uchinchisi – taqvodor odamni haqorat qilmoq, to'rtinchisi – etimning molini nohaq olmoq, beshinchisi – sudxo'rlik qilmoq, oltinchisi – kofirlar bilan jang paytida bir musulmonning ikkita kofirdan qochishi, ettinchisi ota-onaga itoatsizlik qilib, ularning haqini tanimaslikdir. Ammo ulug' kishilardan ba'zilari shariatda aniq aytilmagan, lekin qonunda qattiq jazo beriladigan qilmishlarni ham og'ir gunohlardan deb hisoblashadi.

Ulug' kishilar va etuk mushohada sohiblaridan biri, so'zlari ushbu oliy toifaning shahodatnomasi bo'lgan Shayx Abu Tolib Makkiy o'zining «Qut ul-qulub» nomli kitobida tekshiruvlardan o'tgan va ko'pchilik orif odamlarga maqbul bo'lgan fikrni aytadi. Bunga ko'ra og'ir gunohlar o'n ettita bo'lib, ulardan har bir odam saqlanishi lozim. Qolgan hammasi kichik gunohlar bo'lib, ular kechiriladi. Ul o'n etti gunohdan to'rttasi qalbga oiddir. Birinchisi majusiylik bo'lib, bundan Xudo saqlasin. Ikkinchisi – hatto gunohi ko'p bo'lsa ham Parvardigorning lutfidan noumid bo'lish. Uchinchisi – harchand toat-ibodatni ko'p qilsada, o'zini Xudoning g'azabidan bexatarlikda deb hisoblash. To'rtinchisi – boshqalarni gunoh ishlarga undash.

Yana to'rtta gunoh tilga taalluqlidir. Birinchisi – yolg'on guvohlik berish, ikkinchisi – yolg'on qasam ichish, ya'ni haqni botil suratida ko'rsatish, uchinchisi – taqvodor odamni tahqir qilmoq, to'rtinchisi – sehrgarlik bilan shug'ullanmoqdir.

Navbatdagi ikki gunoh qo'lga taalluqlidir. Birinchisi – zino, ikkinchisi – besoqolbozlikdir. Ya'ni bir gunoh oyoqqa oid bo'lib, bu jang paytida bir musulmonning ikkita kofirdan qochishidir. Bitta gunoh butun badanga taalluqli bo'lib, bu ota-ona haqini tanimasdan ular oldida gunohkor bo'lishdir. Agar kimki ushbu o'n ettita gunohdan saklansa, uning bulardan boshqa gunohlari kechiriladi. Bu nasihat haqiqatga yaqindir. Ba'zi ulug' donishmandlar aytishlaricha, juma namozining ado etilishi to kelgusi jumagacha kichik gunohlar uchun kaforat¹⁹ bo'ladi.

¹⁹ Gunohini yuvish uchun beriladigan narsa yoki qilinadigan ish

Qalb yuzasi uni qoplab xiralashtirgan yomonliklar xas-xashagidan tozalansayu, dil chamani ag'yor vujudidan xoli etilsa, unda haqiqiy muhabbat sultoni dil taxtiga o'tirsa arziydi va «podshohlar qishloqqa kirsam, uni xarob qiladilar» (Qur'oni karim, 27-sura, 34-oyat). Sobiq tartibotlar emirilib, ibodat va bandalik rasmi mustahkam qaror topadi. Shu tarzda ag'yorning xalaqitlarisiz mahbub vasli muyassar bo'ladi.

Agar kimningki zimmasiga bandalarning ishlarini yo'lga qo'yish vazifasi tushsa va unga davlatni boshqarmoq muyassar bo'lsa, shuni bilsinkim, podshohdikning o'z shartlari bo'lib, bu shartlarga rioya etilmasa, saltanatning diniy va dunyoviy ishlarida tartib bo'lmaydi. Shuningdek, podshoh oldida mamlakat fuqarosining muayyan huquqlari bo'lib, podshoh ularni ta'min etmasa, u oxirat azobidan najot topa olmaydi. Bular qisqa tarzda bayon qilinadi va har birining mohiyatini ochib beradigan misollar keltiriladi.

Davlatni boshqarmoq shartlari o'ntadir. Birinchi shart shuki, biron voqea yuz berganda va ushbu voqea yuzasidan hukm chiqarish lozim bo'lganda, podshoh yoki hokim o'zini fuqarolardan biri deb tasavvur qilib, boshqa birovni o'ziga hokim deb bilsin. Shu holatda o'sha boshqa birovdan o'ziga ravo ko'rmagan va qilinishi lozim deb bilmagan har qanday hukmni o'zidan boshqalarga ham ravo ko'rmasin. Ikkinchi sharti shuki, podshoh musulmonlarning hojatlarni chiqarishni ibodatlarining sarasi deb hisoblashi zarur. Zero, Rasul alayhissalom aytganlarki: «Mo'minning dilini shod etmoq odamlar va parilarning barcha toat-ibodatlariga barobardir». Demak, musulmonlarning hojatini chiqarishga doimo hozir bo'lib yuradigan podshohgina musulmonlar podshohidir. Agar u bironta musulmonning o'z eshigi oldida muhtoj va muntazir bo'lib turganini bilsa, tokim uning hojatini ado qilmagunicha hech qanday ibodatga mashg'ul bo'lmasligi kerak. Shuningdek, podshoh o'zining rohatini o'ylab, musulmonlarning hojatlarni chiqarishni kechiktirmasligi kerak.

Uchinchi shart shuki, podshoh emoq-ichmoq va kiyinmokda xulafoyi roshidin²⁰ odatlariga amal qilib, tansiq taomlar va bashang kiyimlarga ruju qo'ymasligi kerak. Amiralmominin Ali raziyallohu anhu xalifalik taxtiga o'tirgan kuni bozorga borib uch diramga bir ko'ylak sotib olibdi. Ko'ylakning engi va etagidan qo'lining kafti va oyog'i to'pig'idan oshgan qismini qirqib tashlabdi. Odamlar «Nega bunday qilding?», – deb so'rashganida, «Bu tahoratga qulay, kamtarlikka mos va ergashishga (o'rnak olishga) munosibdir», – deb javob beribdi.

To'rtinchi sharti shuki, podshoh suhbat asnosida muloyim so'zlab, asossiz ravishda qo'pollik qilmasligi lozim. Biron masala yuzasidan dalil-isbotlar ko'p bo'lsa, ularni eshitishdan erinmasligi, zaif va miskinlar suhbatidan or qilmasligi kerak. Nakd qilishlaricha, xalifa Ma'mun zamonasida bir kishi gunoh ish sodir etib, so'ng qochib ketibdi. Uning akasini ushlab Ma'mun oldiga olib kelishibdi. Xalifa unga, agar ukasini topib keltirmasa, qatl etilishini aytibdi. Shunda u odam debdi: «Ey amiralmo'minin! Agar sening noibing biron odamni qatl etmoqchi bo'lsa-yu, «U odamni qo'yib yubor», deb farmon yuborsang, noib uni qo'yib yuboradimi yoki yo'qmi?» Ma'mun debdi: «Albatta qo'yib yuboradi». Haligi odam debdi: «U holda men seni jahon ahliga hokim qilib qo'ygan hazrat Xudovanddan farmon keltiraman. Chunki «Birovning yukini birov ko'tarmaydi» (Qur'oni karim, 35-sura, 18-oyat). Shunda Ma'mun «Uni qo'yib yuboringlar. Chunki u o'z so'ziga isbot keltirdi», – debdi.

Beshinchi sharti shuki, podshoh xalqning roziligini o'ylab, hukm chiqarishda sustkashlik ko'rguzmasligi va ikkiyuzlamachilik qilmasligi lozim. Shuningdek, har bir odamni xushnud etish uchun haqiqat va shariatga qarshi bormasligi kerak. Hukmronlikning o'ziga xos tomoni shundaki, doimo xalqning yarmi podpyuhdan norozi bo'lib yuradi. Chunki muxolif tarafni haqiqat bilan xushnud etib bo'lmaydi va butun xalqning roziligiga erishmoq odil podshoh uchun ham imkon-sizdir. Podshoh hukm chiqarganida hech kimga yon bosmay beg'araz bo'lsa, ya'ni norozi odamlarning g'azabidan andisha qilmay, avvalo Olloh

²⁰ Xulafoi roshidin – «To'g'ri yo'ldan brogan xalifalar», ya'ni Muhammad payg'ambar vafotidan keyin ketma-ket xalifalik qilgan uning to'rtta izdoshi – Abubakr, Umar, Usmon va Ali nazarda tutilmoqda

roziligini istasa, Haq subhonahu ham undan rozi bo'ladi va ham odam-larni undan rozi qiladi. Chunonchi, Rasuli akram sallallohu alayhi vasallam shunday degan: «Odamlarning norozi qilib bo'lsa-da, Olloh roziligini istagan kimsadan u rozi bo'ladi. Odamlarni rozi qilmoq esa Ollohnin ishidir».

Oltinchi sharti shuki, podshoh davlat va mamlakatga tahdid etadigan xatardan g'ofil qolmasligi kerak. U shuni bilsinki, amirlik mansabi va hukumat bir vosita bo'lib, bu vosita orqali abadiy saodat va ezgu nom qo'lga kiritiladi. Davron podshohlari va hokimlarining aksari foniy dunyoning bevafo davlatiga mag'rur bo'lib, havoyi nafslari uchun o'z dinini vayron qiladilar va benomusliklari tufayli iymonni shamolga uchiradilar. Bundan Xudo saqlasin. Bugun inon-ixtiyor sening qo'lingda ekan, shunga sa'y-harakat etginki, tokim dunyoviy davlatga mahliyo bo'lib, oxirat uchun ezgulik urug'ini ekishdan g'ofil bo'lmagin. Haq yo'ldan yurish savobini va adolat uchun xizmat qilishni g'animat deb bilgin. Aytishlaricha, odil podshohnin har kungi adolatini o'lchaganda bu uning jamiy toat-ibodatiga barobar kelsa, shundan ma'lum bo'ladi, u o'zini abadiy saodatdan mahrum etmaslikka harakat qilmokda.

Ettinchi shart shuki, podshoh din ulamolarini ziyorat etish va ular bilan suhbatlashish uchun o'zida ehtiyoj sezishi kerak. Garchand bu zamonda bu toifa odamlarni topish mushkul bo'lsa-da, ular azizdirlar. Agar Olloh inoyati bilan ular bu diyorda paydo bo'lib qolsa, podshoh ularning ziyoratiga shoshilmog'i va bu toifaning nasihatlarini o'z hayotining saodati deb bilmog'i lozim. U orif odamlar suratiga kirib oluvchi johillar va fosiqlar suhbatidan saqlanmog'i shart-dir. Chunki bunday odamlar dinni vayron etuvchilar qavmidandirlar. Shunday bir rivoyat bor: Horun ar-Rashid Shayx Shaqiq Balxiy quddisa sirrahuni o'z oldiga chaqirib unga debdi: «Menga nasihat qil». U debdi: «Ey, amiralmo'minin! Xudoning do'zax nomli bir saroyi bor, seni shu saroyga darvozabon qilib qo'ygan Olloh senga uchta narsa bergan bo'lib, shu uchta narsa bilan sen xalqni ushlab turishing kerak. Bular: mol, qilich va qamchidir. Mol bilan sen muhtojlarning haddan oshiq kambag'allashib ketishining oldini olmog'ing lozim, tokim ular ilojisizlik sababidan yomon shubha-xayollarga bormasinlar. Qilich bilan zolimlarni qirasan

va qamchi bilan fosiqlarning ta'zirini berasan. Agar shu aytilganidek qilsang, ham o'zing najot topasan va ham xalqni najotga etkazasan. Lekin bunga xilof ish olib borsang, hammadan burun sening o'zing do'zaxga borasan va boshqalar sening izingdan boradilar».

Sakkizinchi sharti shuki, podshoh jabr-zulm va takabburlik bilan xalqni o'zidan qo'rqitmasligi, balki zaiflar va o'z qo'l ostidagilarga adlu ehson va shafqat nazari bilan qarab, ra'iyatning muhabbatini qozonmog'i lozim. Rasul sallallohi alayhi vasallam shunday degan: «Sizning eng ya'shi podshohlaringiz sizni sevadigan va siz ham ularni sevadiganlaringizdir. Eng yomon hokimlaringiz esa sizni o'ziga dushman deb biladigan va siz ham ularni dushmaningiz deb hisoblaydiganlaringizdir».

To'qqizinchi sharti shuki, podshoh zo'ravon amaldorlarning zulmiga beparvo qaramasligi lozim. Qaysi bir amaldorning zulm va jinoyatini payqagan zahoti uni jazolab, uqubatlarga duchor etsinki, bu boshqalarga bir ibrat bo'lsin. Podshoh hukumat ishlarida bo'shanglikka yo'l qo'ymasligi, davlat arboblari siyosat va nasihat yo'li bilan tarbiyalashi zarur.

O'ninchi shart farosatdir. Podshoh va hokim ro'y berayotgan voqea-hodisalarning yuzaga kelish sababi va mohiyatiga chuqur nazar tashlamoqlari, basirat ko'zi bilan ularning oqibatini ko'ra olmoqlari vojibdir. Agar bu masalalar aniq va ravshan bo'lsa, ularni shariatga ko'ra hal etmog'i, chigalliklar mavjud bo'lsa, ularni farosat nuri bilan yoritib idrok etmog'i lozim. Bu sohada hikoyachilar so'ziga e'timod qilmagan ma'qul. Chunki yakuni va intihosi bor masalalarni oxiri yo'q hikoyalar bilan tushuntirib bo'lmaydi.

Shuni bilginki, musulmon fuqarolarning podshoh oldida haqlari bo'lib, ularni bajarmoqqa kirishmoq podshoh va hokimga vojibdir. Bular shuki, u musulmonlarga nisbatan tavezeli bo'lsin, o'z hukmronligi va mulkidan mag'rurlanib hech bir musulmonga takab-burlik qilmasin. Shunga amin bo'lsinki, Ollohu taolo mutakabbir va shafqatsiz kimsalarni o'ziga dushman deb biladi. Podshoh odamlarning bir-birini yomonlab aytgan so'zlariga quloq solmasinkim, bundan u faqat nadomat chekadi. Ayniqsa fosiqlar, g'arazgo'ylar va hasadgo'ylar

so'zlarini eshitmaslik kerak. Chunki ular barchasi g'araz va hasad bilan fisqu fasod so'zlarni gapirib, fazilatlarni ayb qilib ko'rsatadilar. Naql etishlaricha, bir kishi amiralmo'minin Ali karramallohu vajhahu oldiga kelib bir odamni yomonlay boshlabdi. Amiral-mo'minin debdi: «Biz sening so'zingni tekshirib ko'ramiz. Agar gaping rost bo'lsa, chaqimchiliging uchun, yolg'on bo'lsa, yolg'on gapirganing uchun senga jazo be-ramiz. Aytgan so'zing uchun tavba qilsang esa, afv etamiz». U odam: «Ey amiralmo'minin, men tavba qildim», – debdi. So'ngra podshoh biron aybi yo kamchi-ligi uchun musulmon odamga g'azabini sochmasin va uni afv etish imkoni bo'lsa, buni orqaga surmasin. Dinga zarar etkazuvchi ayblar sababli g'azab qilinsa o'rinli, ammo dunyoviy ishlarda kechirimli bo'lish afzalrokdir. Ma'lumki, har kimki boshqalarni kechirsa, Haq subhonahu taolo ham qiyomat kunida uning gunohlarini kechiradi. Yana shu ma'lumki, Haq subhonahu taolo Yusufi siddiq salavotullohu alayhiga shunday vahiy yuborgan: «Ey Yusuf, shuni bilki, sen o'z aka-ukalaringni kechirganing uchun biz sening nomingni yuksakka ko'tardik». Nazm:

Suxan daroz kashidam-u hamchunon boqist,
Hadisi dilbari fattonu oshiqu ma'shuq.
Dil guft: «Maro ilmu laduniy havas ast,
Ta'limam kun, agar turo dastras ast».
Guftamki: «Alif», guft: «Digar?»
Guftam: «Hech,
Dar xona agar kas ast, yak harf bas ast».

(So'zni cho'zdik, ammo hanuz tugamadi,
Go'zal dilbar va oshiqu ma'shuq haqidagi hikoyalar.
Qalbim dedi: «Mening ilohiy ilmlarga havasim bor,
Agar qo'lingdan kelsa, menga o'rgatgin».
Dedim: «Alif», qalbim dedi: «Yana?»
Dedim: «Hech,

Uyda odam bo'lsa bir harfning o'zi etarlidir»²¹.

2.2. Tariqat vakillari haqidagi ma'lumotlar

Kommunistik mafkura hukmron bo'lgan yillarda tariximiz bir tomonlama millatimiz hamda ruhimizga yot bo'lgan marksizm-leninizm deb atalmish g'oya ta'sirida yozildi. Yuz bergan voqea va hodisalar biryoqlama yoritildi, buyuk olimlarimiz, ma'rifatparvar bobokalonlarimizning peshonasiga dinparast, teskarichi, bid'atchi degan tamg'alar bosildi. Bu davrda Vatanimiz, ayniqsa milliy davlatchiligimiz tarixida buyuk siymolar haqida, shu jumladan naqshbandiya tariqati vakillari to'g'risida ham turli uydirmalar tarqatilgan edi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa aniq – xalqni o'zligini anglashga xizmat qiluvchi tarixiy omillardan mahrum qilish, shu tariqa, uni mustabid tuzum iskanjasida ushlab turish bo'lgan.

Mustaqilligimiz tufayli biz haqqoniy tariximizni manbalar asosida holisona yoritish imkoniyatiga ega bo'ldik. Natijada tariqat vakillari fajliyatini ham keng o'rganila boshlandi.

«Tarixi Rashidiy» muallifi o'z kitobida ko'pgina diniy arboblarning asarlariga o'rin ajratadi. Ularning faoliyatini el-yurt xaloskorligini ta'minlashda, ma'naviy-ma'rifiy jabhada shohu gadoga teng ta'sir o'tkazishda kuzatadi. O'z e'tiqodi manbai va shaxsiy yutuqlarini shu piri murshidlar faoliyatlari sharofatidan

²¹ Мавлоно Муҳаммад Қози. Ҳуқмдорга ўғитлар. Т., Шарқ, 1999, 21-29 бетлар

ko'radi. Biz biror tarixiy asarda diniy ustozlarga bu darajada keng o'rin ajratilganini bilmaymiz.

«Tarixi Rashidiy»ning boshqa tarixiy asarlardan farq etuvchi xususiyati shundaki, unda hukmdorlar tarixi talqini bilan uzviy ravishda turli davrlardagi diniy shaxslar pir-murshidlarining ham o'ziga xos sulolalari faoliyati o'z aksini topgandir. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Bahouddin Naqshband 1318 yil Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon (Kogon tumani)da tug'ilib, 1389 yil u erda marhum bo'lgan. Qabri Qasri Orifonda ziyoratgohdir. Bahouddin tug'ilgan joy Qasri Hinduvon deb atalgan, keyin u kishining sharofatidan Qasri Orifonga aylangan ekan. Hazratning ismlari Muhammad, otalari Muhammad Jaloliddin, bobolari esa Sayyid Burhoniddindir. Bu zoti sharif nasablari ota tomonidan Hazrat Ali raziyallohu anhuga, ona tomonidan esa Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi.

“Naqshband” Hazrati Xojaning laqablari bo'lib, matoga naqsh(gul) solishni bildiradi. Bahouddin Naqshband va uning otasi kimxobboflik kasbi bilan shug'ullangan va do'koni bo'lgan. “Hazratga Naqshband nomini berilganligiga ikki sabab bor. Biri shuki, bu zoti sharif kimxoga, ya'ni matoga naqsh solish (gul solish) kasbi bilan shug'ullangan. Ikkinchisi esa, naql qilinishicha, Hazrat Bahouddin kim bilan suhbatlashsalar, shu suhbatdan so'ng Allohning nomi o'sha odam qalbiga naqshlanib qolarkan. Shu sabab bu kishiga Naqshband unvoni berilgan”.

Bahouddin Naqshbandning hayoti va faoliyati haqida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlardan S.S. Buxoriy²², Izzat Sulton²³ asarlarini ta'kidlash lozim. K.Kattaev, S.Karimov tadqiqotlarida²⁴ nega Bahouddin Naqshband Amir Temur bilan uchrashmagan yoki unga pir bo'lmagan? degan savol javob berilgan. Unga ko'ra Amir Temur Bahouddin Naqshband shaxsini juda yaxshi bilgan va

²² Бухорий С.С. Дилда ёр (Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд). – Т.: Ф. Фулом ном. Адабиёт ва санъат наш., 1993; Бухорий С.С. Табаррук зиёратгоҳлар. – Т.: Ёзувчи, 1993

²³ Иззат Султон. Баҳоуддин Нақшбанд абадияти. – Т.: Фан, 1994

²⁴ Каттаев К. Гўри Амир макбараси ва қабртошлари тарихи. – С.: Зарафшон, 2008.- б. 93; Каримов С. Амир Темур ва нақшбандийлик. Таълим тизимида талаба ёшларнинг ғоявий-мафкуравий тарбияси ва уларнинг уйғунлигини таъминлашнинг долзарб муаммолари. Мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция. б. 50-54

uning ta'limotining nazariy jihatlarini o'zining mavqei darajasida o'zlashtirib o'zining shaxsiy turmush tarziga va siyosatiga tadbiq qilishga doimo harakat qilgan.

Xalqimiz e'zoz bilan tilga olayotgan Amir Temur o'gitlarida shunday narsa keltirilgan piri komil Shayx Bahouddin Naqshbandning "kam egin, kam uxla, kam gapir" degan pandu nasihatlariga amal qildim. Arkonu davlatga, barcha mulozimlarga ham aytar so'zim shu bo'ldi: "Kam englar – ocharchilik ko'rmasdan boy-badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar – mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar – dono bo'lasizlar". Amir Temur o'z davlat siyosatini olib borishda Shayx Bahouddin Naqshbandning o'gitlariga amal qilgan va uning barcha erishgan muvaffaqiyatlarida bu ta'limotning xizmatlari bor ekan. Biz mustaqil va ustivor davlat qurmoqchi ekanmiz, yuqorida tilga olingan allomalarning o'gitlarini o'rganishimiz, unga amal qilishimiz va boshqalarga ham shu yo'ldan borishga da'vat etishimiz kerak²⁵.

Bahouddin Naqshbandning to'rtta shogirdi bo'lgan: 1) Xoja Alouddin Attor hazrat Bahouddinning birinchi va etuk xalifasi. To'liq ismi Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy bo'lib, asli Xorazmdan edi. U hali madrasani tugatmasdanoq hazrati Xojani o'ziga pir tutib, uning sulukiga kiradi. Hazrati Xoja uni e'zozlab, domodlikka qabul qiladilar. Attor bir umr hazrati Xoja bilan birga bo'lib, u kishining ishorati bilan ko'p kishilarni o'z tarbiyasiga oladi. «Bahouddin Naqshband hayotliklarida ko'p toliblarning tarbiyasini Alouddin Attorga havola etdilar. Va aytardilarkim Alouddin bizga ancha engillik yaratdi. Valoyatning anvari va asari undan to'la va mukammal darajada yuzaga keldi. Uning suhbatining barakoti va tarbiyalari bilan ko'p toliblar bo''du nuqson poygohidan qurbi kamol peshgohiga etishdilar va akmal martabasini topdilar».

Xoja Alouddin Attorning fandagi asosiy xizmati Xoja Bahouddin Naqshband haqida o'zi va boshqalar bilganlarini yozdirib kitob qilish ishiga bosh-qosh bo'lganidir. Jumladan, Bahouddin Naqshbandning ikkinchi xalifasi Xoja Muhammad Porso o'zining Bahouddin Naqshbandga bag'ishlab yozgan «Risolai

²⁵ Амир Темур. Амир Темур ўғитлари. Тузувчилар Б.Ахмедов, А.Аминов. – Т.: Наврўз, 1992.- б. 58

qudsiya» asarini yozishga ikkilanib turgan paytida, Xoja Alouddin Attor unga dalda bergan. Muhammad Porso yana ushbu kitobda Xoja Bahouddin haqida ma'lumotlarni u kishining e'tiborli yor-do'stlari to'plab «Maqomot» (Hayotiy lavhalar) shakliga keltirayotganlari va xudo xoxlasa tez orada ul ish nihoyasiga etishi haqida ham xabar beradi.

Saloh ibn Muborak al-Buxoriy o'zining «Anis at-tolibin» asarida, Xoja Bahouddin Naqshband haqidagi ushbu asar Alouddin Attor topshirig'iga ko'ra yozilganini kitob boshlanishidayoq ko'rsatib o'tgan. Alouddin Attor ko'p hikoyalarni (naql) o'zi aytib bergan va kitobda bu hikoyatlar «Xoja Alouddin aytmishlarki» deb boshlanadi. Demak, Bahouddin Naqshband haqida yozilganlar bir qismi Saloh ibn Muborak, Xoja Muhammad Porso qalamiga mansub bo'lsa, bir qismi Xoja Alouddin Attor va boshqa muxlislar hikoyalari asosida yozilgan.

«Rashahot»da yozilishicha, Xoja Alouddin Attor aytgan tasavvuf va tariqatga oid o'gitlardan ba'zilarini Xoja Muhammad Porso yig'ib borgan va ularni Xoja Bahouddin haqida yozgan «Risolai qudsiya» asariga qo'shmoqchi ham bo'lgan, biroq adolatli ish bo'lmay qoladi, degan fikrda bu qo'shimcha ma'lumotlarni (zayl) alohida risola tarzida yozgan, bu asar «Maqomoti Xoja Alouddin Attor» deb ataladi. Xoja Muhammad Porsoning yozishicha, Xoja Alouddin Attor Chag'oniyonning Dehnav degan joyida yashagan. Navoiyning yozishicha, u bu erga Bahouddin Naqshband vafotidan (1389 y.) so'ng kelib o'rnatilib qolgan. Ungacha piri bilan Buxoroda bo'lgan. Hijriy 795 yil sha'bon-ramazon oylarida (melodiy 1393 yil iyun-iyul) Bahouddin Naqshband qabrini ziyorat qilish maqsadida Buxoroga kelib ketgan. Oradan etti yil o'tgach, 1400 yil 18 martda yuqorida qayd etilgan Dehnav (hozirgi Denov)da vafot etgan va o'sha erda dafn etilgan.

2) Xoja Muhammad Porso (1345-1419) hazrati Xoja Buzurgning ikkinchi xalifasi. To'liq ismi Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hofiz al-Buxoriy. Qabrlari Madinada. «Rashahot»da yozilishicha, Muhammad Porso riyozat chekib yurgan paytida, bir kuni hazrati Xoja huzuriga kelib, eshik oldida turadi. Tasodifan ko'chaga chiqib uni ko'rib qolgan kanizdan «Ko'chadagi kim?»

deb so'raydilar hazrati Xoja. Kaniz «bir porso (dindor) yigit turibdi» deydi. Hazrati Xoja tashqariga chiqib, Xoja Muhammadga «siz porso ekansiz» deydilar. Shu kundan boshlab el orasida u «porso» laqabi bilan mashhur bo'lib ketadi. Porso piringing mehrini qozonadi. Shuning natijasida hazrati Bahouddin vafotlaridan avval Muhammad Porsoni o'z o'rinlariga tayin qilgan bo'lsalarda, biroq u o'zidan yoshi ulug'roq bo'lgan Xoja Alouddin Attorga bu vazifani topshiradi.

Xoja Muhammad Porso nafaqat valiulloh, balki o'z davrining yirik olimlaridan ediki, uning 20 dan ortiq asarlari bizgacha etib kelgan. Hayoti va ilmiy merosi Xidirova Nargiza O'rinovnaning nomzodlik dissertasiyasida maxsus tadqiq etilgan²⁶.

3) Xoja Alouddin G'ijduvoni Bahouddin Naqshbandning uchinchi xalifasi. «Rashahot»da yozilishicha, G'ijduvonda tug'ilgan. Qabri buxoroning janubida Iydgohga yaqin Filmarza dahasining o'rtasidagi tepalikdadir. Xoja Alouddin yigitlik vaqtida ham hazrat Bahouddinning mulozamat va qabullarini topgan edi. Bahouddin Naqshband vafotlaridan so'ng u kishining ko'rsatmalari va ishoralari bilan qolgan umrini Xoja Muhammad Porso va u kishining o'g'li Xoja Burhoniddin Abu Nasr Porso suhbatlarida o'tkazganlar. Va ul buzurgvorlar ham bu kishini suhbatlarini g'animat bilganlar. 1426 yili 22 yashar Xoja Ahror Buxoroda bu zotning suhbatlariga etganlarida Xoja Alouddin G'ijduvoni 90 yashar muysafid edi.

4) Ya'qub Charxiy Bahouddin Naqshbandning to'rtinchi xalifasi, etuk olim. To'liq ismi Ya'qub ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy summal Charxiy bo'lib, Mavloni nomi bilan mashhur. 1447 yili vafot etgan. Qabri Dushanbe yaqinidagi Halg'atu qishlog'ida. «Safiyning yozishicha, Charxiy ota-onasi bilan Afg'onistonning G'azna shahrida yashab, so'ng shu shaharga tobe' bo'lgan Charx qishlog'iga ko'chib keladi. Charxiy dastlabki bilimni G'aznada oladi, so'ng Misr va Hirotda davom ettiradi. Keyinroq esa Buxoroga kelib, madrasalarning birida o'qiy boshlaydi. Yosh Charxiy boshqa talabalar qatori tez-tez Bahouddin

²⁶ Хидирова Н.Ў. Хожа Мухаммад Порсонинг хожагон-нақшбандия тариқатининг ривожланишида тутган ўрни ва роли (XIV а.о.-XV а. б.): Тарих фан. ном. ... дис. – Ташкент: 2008

Naqshband suhbatida bo'ladi va Bahouddin Naqshband unda katta taassurot qoldiradi».

Shahar ulamolari va ulug' kishilari orasida katta e'tibor qozongan Charxiy Naqshband bilan xayrlashib vatani Charxga qaytadi. Bir necha oylardan keyin Charxiy yana Buxoroga qaytib kelib Bahouddin Naqshbandga qo'l beradi. Naqshband uni Alouddin Attorning tarbiyasiga topshiradi. Charxiy bir necha muddat Naqshband va Attor xizmatida turgach ota yurti Charxga ketadi. Lekin Shahrisabzga etganida Naqshbandni vafot etganini eshitib, bir necha muddatdan keyin Badaxshonga keladi. Charxiyni bu erdan Alouddin Attor o'z huzuriga chaqirib oladi.

Muhammad Doroshukuhning «Safinatul avliyo» (17-asr) asarida Xoja Bahouddin Naqshband Mavlono Ya'qub Charxiyni muridlikka qabul qilgach, uni Xoja Alouddin Attorga topshirilgani va u kishining vafotlaridan so'ng, Alouddin Attor suhbatida kamol martabasiga etganligi qayd etilgan.

Xoja Alouddin Attor Bahouddin Naqshbandning ashoblaridan bo'lmish naqshbandiya tariqatining davomchisi – Mavlono Ya'qub Charxiy bilan juda yaqin do'st bo'lganlar. Bahouddin Naqshband vafotlaridan so'ng, Mavlono Ya'qub Charxiy ma'lum muddat Badaxshonda istiqomat qilib turgan paytda Alouddin Attor maktub yo'llab, u kishini o'z yonlariga kelishga chorlaydilar. Charxiy do'stining bu iltimosini qabul qilib, Dehnavga keladi va to Alouddin Attor vafotigacha o'sha erda yashaydi, so'ngra Hisor viloyatiga o'tib Halg'atu qishlog'ida vatan qilib qoladi. Hozir qabrlari o'sha erda va katta ziyoratgoh, bu joy «Hazrati Mavlono» nomi bilan mashhurdir.

Mavlono Ya'qub Charxiy Naqshbandiya ta'limoti, turli diniy ilmlarga oid o'ndan ortiq asarlar yozgani ma'lum. Uning hayoti va ilmiy merosi M.Razzoqovanning nomzodlik dissertasiyasida tadqiq etilgan²⁷.

Mirzo Ulug'bek davrida (1409-1449) Samarqandda naqshbandiya tariqatining rahnamosi sifatida faoliyat ko'rsatgan Nizomiddin Xomushning (tax.

²⁷ Раззокова М.С. Яъқуб Чархийнинг илмий мероси ва унинг нақшбандия тариқати ривожига тутган ўрни (XIV-XV асрлар): Тарих фан. ном. ... дис. – Ташкент, 1998

1360-1450 yy.) hayoti va faoliyati endi o'rganilmoqda. «Rashahot»dagi «to'qson yashar bo'lgan edilar» degan ma'lumotga asoslanib, Nizomiddin Xomushni 1360-1450 yillarda yashagan deyish mumkin. Amir Temurning siyosat maydoniga kirib kelishi arafasida tug'ilgan Xomushning asosiy faoliyati Movarounnahrda Xalil Sulton, Mirzo Ulug'bek va Xurosonda Shohruh, Mirzo hukmronligi davrida Samarqandda kechgan. Xuddi shu davrda tasavvufning xojagon-naqshbandiya tariqati bu o'lkalarda katta e'tibor qozondi va ijtimoiy guruhlarining barcha tabaqalari orasida keng yoyildi.

XV asrning birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda, xususan Samarqandda katta obro'-e'tiborga, hurmatga sazovor bo'lgan, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy hayotida o'ziga xos o'rin tutgan naqshbandiya tariqatining rahnamosi – Nizomiddin Xomush tariqatni rivojlanish cho'qqisiga olib chiqqan Xo'ja Ahrorning asosiy ustozlaridan biri bo'lgan. Xo'ja Ahrorga bag'ishlangan «Rashahot» asari, balki shuning uchundir, Nizomiddin Xomush hayoti va faoliyatini o'rganishda eng asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. U haqda boshqa manbalarda «Rashahot»dagidek ma'lumotlar berilmagan. «Rashahot»dagi ma'lumotlar esa uning o'z shogirdi Xo'ja Ahror bilan bo'lgan munosabatlariga oid.

Xo'ja Ahror haqida ma'lumot beruvchi agiografik manbalar, keyingi davrda yaratilgan asarlar, risola va maqolalarning deyarli barchasida uni Nizomiddin Xomush suhbatiga yetganligi ta'kidlanadi.

Jomiyning N. Lome'iy tomonidan usmonli turkchaga o'girilgan «Nafaxot ul-uns» asarida o'qiymiz: «kondilardan (o'zlaridan) manquldurki, oytdilar, yigirma yoshimda ekan. Toshkentda banga (manga) tahsili ilmi zohiri orzusi g'alaba etub,

Samarqand ketdim va ul zamonda Samarqandda Ulug'bek madrasasida Mavlono Nizomiddin Xomush mudarris edi va aning ahvolini, istig'roqi va jazbasini eshitmish edim, pas mavlonoya taftish etdim, madrasaya ketmish bo'ldim. Madrasaya borub ko'rdim, dars ta'lim etar. Bon (man – B.M.) daxi bir go'shada mustame' o'lub, sokin va samiy (jim va eshitib – B.M.) o'turdim». Bu ma'lumotlarni Ahmad ibn Mustafo Toshko'pirzodaning (v. 1561) «Ash-shaqoiq, an-No'moniya» asarida ham o'qishimiz mumkin. Xojagon-naqshbandiya tariqatining murshidi bo'lgan Nizomiddin Xomushni Ulug'bek madrasasida mudarrislik qilgani juda e'tiborli va qiziqarli holdir. Chunki mudarrisilarni Mirzo Ulug'bekning o'zi boshqargan²⁸.

Naql qilinishicha, Xo'ja Ahror Samarqandga borib, Mavlono Xomush dars beradigan hujraga kirib, shogirdlar qatorida, bir burchakda sukut saqlab o'tiradilar. Mavlono darsni tugatib, Xo'ja Ahrorga qarab deydilarki, nega jim o'tirmoqni ixtiyor aylading? Davrada gapirmay, sukut saqlab o'tiradiganlar ikki toifadir. Biri oliy maqomga erishganlar bo'lib, undaylar sukuti buyukligidan va kamtarligidan nishona. Ikkinchisi esa bilimsiz kishilar bo'lib, ular o'z nodonligini yashirish maqsadida jim turadilar va hiyla ishlatadilar.

Toshkentdan ilm o'rganish maqsadida sayohatga chiqqan Xo'ja Ahror Nizomiddin Xomush «hol»ini (so'fiy qalbida beixtiyor o'z-o'zidan paydo bo'ladigan ruhiy kechinma. Hol Haq tuhfası va hadyasi bo'lib, insonning irodasi va harakatiga tobe emas), «istig'roq»ini (insonning shavqu-zavq, hayajon bilan o'zini bilmas darajada fikrga, hayratga cho'mishi) va jazbasini eshitib madrasaga kelib, undan dars olgan. «So'ngra «Nafahot»da

²⁸ Бузруков М. Низомиддин Хомуш – Хожа Аҳрор устози // Республика ёш олимлар илмий-амалий конференцияси материаллари. – Т.: Фан, 2007.- б. 75

yozilishicha, Xo'jamiz (Xo'ja Ahror – B.M.) bir kuni Mavlono Xomushga markab (ot-ulov) berib alarni Toshkentga boshlab kelganlar. O'z hovlilarida Mavlono Nizomiddin Xomushni mehmon qilib, obdasta tutib, birga namoz o'qib, xizmatlarini sidqi dildan qilib, samimiy mehmon qilganlar».

«Rashahot» da yozilishicha Xo'ja Ahror Samarqandga kelganda, uning otasi Nizomiddin Xomushga odam yuborib «men uni amakisining qiziga uylantirmoqchiman, agar darhol kelib, uylanmasa, birodarim mendan xafa bo'ladi» deb qattiq undaydi. Nizomiddin Xomush Xo'ja Ahrorga ko'p nasihatlar qiladi va oxirida «biz bilmasmiz, agar kishi majburlik, chorasizlikdan qiyin ahvolda, aro yo'lda qolsa, har joyda o'ziga qaror qila olmasa, hech ish va hech narsa bilan oromi bo'lmasa, unda uzrlidir» deydi. Bizningcha, otasining xohishi bilan bo'lgan bu nikoh Xo'ja Ahrorning B. Umrzoq aytganidek yigirma besh yoshlarida emas, balki yigirma bir yoshlarida amalga oshgan va uni o'qishni tashlab Toshkentga qaytib ketishiga sabab bo'lgan.

Xo'ja Ahror yigirma ikki yoshida tog'asi bilan Samarqandga ikkinchi marta kelib, bu yerdan Buxoroga boradi. Yo'lda bir hafta Sirojiddin Pirmastiy bilan suhbat qilib, Mavlono Hisomuddin Shoshiyni ko'rgach, Xo'ja Alouddin G'ijduvoniylar suhbatiga yetadi. Alouddin G'ijduvoniylardan siz Hazrati Xo'ja (Ahror)ga tez ijozat berdingiz? Deb so'raganlarida «Xo'ja Ubaydulloh bizning yonimizga yetuk, mukammal bo'lib keldi va bizning yonimizdan yetuk, mukammal bo'lib ketdi» degan ekan.

Xo'ja Ahrorning Alouddin G'ijduvoniylar oldiga yetuk, mukammal bo'lib borishida Nizomiddin Xomush va uning suhbatlarini alohida o'rni bor. Xo'ja Ahror G'ijduvoniylar suhbatida qirq kun bo'lib, Marv yo'lidan Hirotga boradi. To'rt yil Hirot

bo'lgach Balx va Shibirg'on yo'li orqali Halg'atuga borib uch oy Ya'qub Charxiy xizmatida bo'ladi, unga bay'at qilib, qo'l beradi.

Mavjuda Razzoqovaning yozishicha Xo'a Ahror Valiy yoshlik yillarida Samarqand va Buxorodan o'zini qoniqtiradigan pir topolmaydi. XV asrda Movarounnahrda murshid sifatida nom qozonolgan shayx bu Nizomiddin Xomush edi. Xo'ja Ahror Valiy Nizomiddin Xomush bilan yaqin aloqada bo'lgani, uni Toshkentga o'z uyiga olib kelganligiga qaramay, nima uchundir unga qo'l bermaydi. Xo'ja Ahror Valiyning Samarqand va Hirotda ko'p vaqt birga bo'lgan qadrdon do'sti, keyinchalik Abdurahmon Jomiyga pir bo'lgan Mavlono Sa'diddin Qoshg'ariy esa Mavlono Nizomiddin Xomushning muridi edi²⁹. Xo'ja Ahrorning nega Xomushga qo'l bermaganligi alohida mavzu. Chunki u hazrati Naqshbandga bevosita qo'l bergan murshid izlar edi.

XV asrning birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda, xususan Samarqandda katta obro'-e'tiborga, hurmatga sazovor bo'lgan, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy hayotida o'ziga xos o'rin tutgan naqshbandiya tariqatining rahnamosi – Nizomiddin Xomush tariqatni rivojlanish cho'qqisiga olib chiqqan Xo'ja Ahrorning asosiy ustozlaridan biri hisoblanadi.

Xo'ja Ahrorga nisbatdan bildirilgan munosabat mustamlakachilik, sovetlar va mustaqillik davrlari mobaynida bir necha marotaba o'zgardi. O'tmishning taniqli tarixiy arbobiga nisbatan ushbu qarashlar har bir yangi davrda siyosiy va mafkuraviy shart-sharoitlardan kelib chiqib turlicha bo'lgan.

Xo'ja Ahrorni anglashdagi, uning faoliyatiga haqqoniy va holis baho berishdagi harakatlar shubhasiz mustaqilligimizni qo'lga kiritganimizdan so'ng yangi bosqichga ko'tarildi.

²⁹ Раззокова М. Мавлоно Яъқуб Чархий – Хожа Аҳрорнинг пири // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2004 й. № 2

Hurmatli Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek «Xo'ja Ahror Valiy o'z davrida 25-30 yil mobaynida Markaziy Osiyodagi xalqlarni birlashtirish, siyosatchilarning boshini qovushtirish orqali har xil to'qnashuvlarning oldini olish uchun bor kuch-g'ayratini sarflagan, uning yuksak obro'-e'tibori bunda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. «Shayxlar shayxi» deb nom olgan bu ulug' zotning gapini biror hukmdor, hokim, shahzoda ikki qilmagan. Nega deganda, xalq uni boshiga ko'targan. Biz ham bunday aziz ajdodlarimizni boshimizga ko'tarishga tayyormiz»³⁰.

Xo'ja Ahror hijriy 806 yilning ramazon oyida, ya'ni milodiy 1404 yilning mart oyida Shosh – Toshkent viloyati muzofotlaridan Bog'istonda dunyoga kelgan. Otasi Xo'ja Mahmud va buvalari ma'rifatli kishilardan bo'lib, dehqonchilik va tijorat bilan shug'ullangan. Ona tarafidan Xo'ja Ahror mashhur Shayx Xovand Tohurga borib ulanadi.

Xo'ja Ahror boshlang'ich ma'lumotni Toshkent madrasalarida olib, yoshlik chog'laridanoq muqaddas joylarni ziyorat qilishga moyillik ko'rsatadi va 23-24 yoshlarida tog'asi, zamonasining bilimdon kishilaridan bo'lgan Xo'ja Ibrohim uni Samarqandda o'qitishni maqsad qilib qo'yadi. Xo'ja Ahror ko'proq tasavvuf ilmiga qiziqadi. Shu maqsadda Hirotga kelib, 1428-1431 yillar orasida Shayx Bahouddin Umar, Shayx Zayniddin Xavofiy kabi taniqli tasavvuf bilimdonlari suhbatida bo'ladi. So'ng Chog'aniyonning Xulg'atu mavzeida istiqomat qiluchi Xo'ja Bahouddin Naqshbandning shogirdi bo'lgan Ya'qub Charxiy (vafoti 1447)ga qo'l berib, undan Naqshbandiya tariqati asoslarini o'rganadi. 1431-1432 yillar orasida Xo'ja Ahror Toshkentga qaytib, naqshbandiya tariqatining yirik arbobi Bahouddin Naqshband ta'limotining davomchisi sifatida tanilib,

³⁰ Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.- б. 23

Ayni vaqtda dehqonchilik va tijorat ishlari bilan mashg'ul bo'ladi.

Manbalarda ko'rsatilishicha, Xo'ja Ahrorning xo'jalik faoliyati tez orada juda keng rivoj topadi. Chunonchi, «Rashahot» asari muallifi Faxruddin Ali Safiy Xo'ja Ahror yerlari Toshkent viloyatidan to Amudaryo sohillarigacha bo'lgan hududda 1300 dan ortiq ekinzorlarni tashkil etganini eslatadi. Shunisi e'tiborga sazovorki, tadqiqot ishlarida aniqlanishicha, mayda mulkchilar soliqlardan qutilish uchun o'z yerlarini Xo'ja Ahror ixtiyoriga o'tkazishgan. Xo'ja Ahrorning hukmdor oldidagi nufuzi shariatda belgilangan (umr, mol, zakot) dan tashqari favqulodda soliqlarni mehnatkashlar gardaniga yuklashdan ularni himoya etgan. Xo'ja Ahror yerlarining ko'payib borishiga shu omil ham bir sabab bo'lgan holos. Dehqonchilik, chorvachilikdan tashqari Xo'ja Ahrorning shaharlarda ham hunarmandchilik rastalari, ustaxonalari bo'lgan va bulardan ham katta daromad kelib turgan.

Savdo-sotiq masalalarida Xo'ja Ahror nafaqat Movarounnahr bilan, balki Xuroson, Hindistonga ham mollarni yuborib, savdo qilgan. Shuni ham aytib o'tmoq lozimdirki, Xo'ja Ahror o'z xo'jalik faoliyatidan olgan daromadlarining ko'pgina qismini aholi boshiga tushgan og'ir soliqlarni to'lash, diniy va madaniy qurilishlarni amalga oshirish kabi ishlarga sarflagan.

Keyingi yillarda Xo'ja Ahror Vali hayoti, faoliyati, me'rosi haqida Z. Qutiboyev³¹, X. Barakayev³², E. Karimovlarning asarlari nashr etildi³³. Ushbu asarlar Xo'ja Ahrorni anglashga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Ammo, ta'kidlash joizki bu boradagi eng muhim voqea bu O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan «Xo'ja Ahror Valiy tavalludining 600

³¹ Кутибоев З. Хожа Ахрор Валий. – Т.: Фан, 1996

³² Баракаев Х. Тасаввуф ва Хожа Ахрор Валий. – С.: Сўғдиён, 1997

³³ Каримов Э. Хожа Ахрор ҳаёти ва фаолияти. – Т.: Маънавият, 2003

yilligini nishonlash to'g'risida» gi qarorning qabul qilinishi bo'ldi. Bu qaror bizga Xo'ja Ahrorni asl qo'lyozma manbalar asosida anglash imkoniyatini yaratdi.

Xo'ja Ahrorning mamlakatning siyosiy hayotida faol ishtiroki 1451 yildan boshlangan. 1447 yili temuriylar davlati bosh hukmdori Shoxruhning, 1449 yili esa Movarounnahr hukmdori Mirzo Ulug'bekning vafotidan so'ng bir necha yil temuriy shahzodalar orasida taxt uchun kurash boradi. 1451 yili shahzodalarning biri Abu Sa'id Mirzo Toshkentda bo'lib, Xo'ja Ahrorni o'ziga ma'naviy madadkor deb taniydi va shu yili Mirzo Abdullo bilan bo'lgan jangda qo'li baland kelib Samarqandni egallaydi hamda Xo'ja Ahrorni Toshkentdan Samarqandga ko'chirib keladi. Xo'janing Samarqandda muqim turishi ana shu 1451 yildan boshlangan va 1490 yilda vafot etib, Samarqandda dafn etilgan³⁴.

Xo'ja Ahror Amir Temur umrining so'nggida dunyoga kelib, uning hayoti Movarounnahrda Halil Sulton, Mirzo Ulug'bek, Abdullatif, Mirzo Abdullo, Sulton Abu Sa'id, Sulton Ahmad, Xurosonda esa Shohruh, Abulqosim Bobur, Sulton Abu Sa'id va Husayn Boyqaro hukmronliklari davriga to'g'ri keladi. Bu davrda Samarqand markazidagi Movarounnahrda ham, Hirot markazidagi Xurosonda ham ma'lum vaqtda toju-taxt uchun kurashlar davom etgan bo'lsa-da, ilm va madaniyatning, hunarmandchilik va tijoratning rivojlangan paytiga mos keladi.

Davlatimiz mustaqilligining ilk yillaridanoq insonparvar islom dini targ'ibotchisi, zukko diniy va siyosiy arbob Xo'ja Ahror Valiy hayoti va faoliyati haqidagi tarixiy haqiqat chuqur ilmiy tahlillar vositasida yoritildi. Taniqli adabiyotshunos olim Botirxon Valixo'jayev mashhur so'fiy hayoti va faoliyatiga

³⁴ Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. – Т.: Ёзувчи, 1994.- б. 64

bag'ishlab o'zbek va tojik tillarida «Xo'ja Ahrori Valiy» nomli kitobni, «Chokidahoi qalam», «Xo'ja Ahror tarixi» nomli risolalarni yozdi. Bugun biz haqli ravishda olimning mazkur turkum asarlarini davrimizning katta adabiy voqeasi, desak arziydi. Olim Xo'ja Ahror Valiy yashagan davr, u mansub bo'lgan jamiyat ijtimoiy-siyosiy muhiti tabiatiga ijodiy yondoshib, alloma siymosini har tomonlama tahlil qildi.

Olimning 1992 va 1993 yillarda Samarqandning «So'g'diyona» va «Zarafshon» nashriyotlarida bosilib chiqqan «Xo'ja Ahror Valiy» nomli o'zbek va tojik tillaridagi kitoblari alloma shaxsini besh yo'nalishda ochib beradi. Muallif tojik tilidagi risolani «Hamsat ul-qatarot dar zikri bobarakot» («Barakotli hazrat haqlarida besh qatra») deb nomlagan. Alisher Navoiy qalamlariga mansub Hazrati Abdurahmon Jomiyga bag'ishlangan «Hamsat ul-mutahayyirin» uslubida yozilgan bu risola Xo'ja Ahror Valiy hayotiga oid kattagina ilmiy adabiyotni tahlil qiladi. Kitobdagi birinchi qatra – Xo'ja Ahror hayoti va faoliyatini o'rganish tarixiga bag'ishlangan, ikkinchi qatra – Muhammad Qozi va Xo'ja Ahror haqidagi mulohazalardan iboratdir. Uchinchi bo'limda Xo'ja Ahror Valiyning turmush tarzlari bayon qilinadi. Va to'rtinchi bo'lim hazrati Xo'janing atvorlari, yozgan asarlari va pand-o'gitlariga doir fikrlarni istifoda etadi. Kitobning yakunlovchi beshinchi bo'limi Xo'ja Ahror avlodlari haqidagi ma'lumotlardan iborat³⁵.

Risolaning o'zbek tilidagi nashri tojik tilidagi nashrining takrori emas. Bu kitob mundarijasi olti bo'limdan iborat bo'lib, ilmiy tahlillarning kengligi bilan farq qiladi. Kitobning oltinchi bo'limi «Ahroriylar fahri» deb nomlanib, Xo'ja Ahror Vali avlodlarining ko'zga ko'ringan namoyondalari, xususan, mashhur

³⁵ Валихўжаев Б. Буюк маънавий муршид. – Т.: Фан, 2004.- б. 4

shoirilar Sultonxonto'ra Ado a Naqubxon To'g'rollar hayoti va faoliyatlariga oid achorli ma'lumotlarga boydir. Xo'ja Ahror shaxsini mukammalroq gavdalantirish maqsadida muallif kitobga «Xo'ja Ahrorning shuhratli muxlislari» degan kattagina bo'limni kiritgan va shubhasiz, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning Xo'jaga bo'lgan munosabatlari ifodalangan bu bo'lim kitobning ilmiy qimmatini yanada oshirgan. Kitobning muhim ahamiyatga molik mulohazalarga boy bo'lgan Xo'janing fazilatlarini va aqidalariga bag'ishlangan bo'limi Xo'ja Ahror shaxsiga nisbatan ko'p yillar davomida aytib kelingan yolg'on fikrlarni keskin fosh qiladi.

Filologiya fanlari doktori Dilorom Salohiyning ta'kidlashicha «Botirxon Valixo'jayevning ushbu kitobi o'zbek adabiyotshunosligi va tarixshunosligi tomonidan qizg'in kutib olinishi bilan birga jahon ilmiy jamoatchiligining ham e'tiborini qozondi. Bunga qadar olimning tadqiqotlari Amerika, Italiya, Chexiya, Afg'oniston, Turkiya, Eron ilmiy-adabiy nashrlarida e'lon qilingan edi. Xo'ja Ahror Vali haqidagi Ushbu asar esa AQShning Garvard universiteti olimi Jo En Gross tomonidan so'rab olindi va hozirgi kunda bu universitetda maxsus kurs sifatida o'qitilmoqda».

«Tarixi Rashidiy»da Chingizxon tomonidan Qoraqurumga ko'chirilgan Mavlono Shujo'iddin Mahmuddan boshlab, Tug'luq Temurxonni islomga keltirgan Mavlono Arshadiddin, uning avlodidan Xoja Tojiddin, Xoja Muhammad Yusufiargacha ma'lumotlar bor. Ularning eng mashhurlari Xoja Ubaydulloh Ahror va Xoja Nuro bo'lib hisoblanadilar.

Xoja Ubaydullohning sodiq muridi – Xoja Nuro nafaqat diniy-ruhiy jabhaning buyuk arbobi, ayni paytda o'z zamonining mislsiz hoziq tabibi ham bo'lib hisoblanadi. Chunki u Sharq mamlakatlarining ilm-fan markazlarida bo'lib, tibbiyot sohasining eng mo'tabar ustozlaridan saboq olgan va birga xizmat ham

qilgan. Muhammad Haydar mirzo u kishining karomatu tabobati haqida juda ko'tarinki ruhda fikr yuritadi³⁶.

Bobur Xoja Ubaydulloh Ahror, uning o'g'illari Xoja Yah'yo va nabiralari Xoja Ya'qub, Andijon qozisi va piri Muhammad Qoziga kuchli e'tiqod bilan yashaganidek, Mirzo Muhammad Haydar ham Xoja Muhammad Nuroga, Mavlono Tojiddin, Mavlono Arshadiddinga ulug' ehtirom bilan qaraydi. Bobur «Boburnoma»da Xoja Ubaydulloh Ahrorning, Xoja Ya'qubning uning joniga ora kirganlarini tushlari va hayotiy voqealar bilan dalillaganidek, Mirzo Haydarning Ubaydullohxon tomonidan Amuga cho'ktirilmagani boisi Xoja Muhammad Nurning Mavlono Muhammadga Haydarni olib qochishga bergan buyrug'i bo'ladi. Shu tavsiya va ko'rsatma tufayli Mavlono Muhammad uni avval Badaxshonga, so'ngra Kobulga – Bobur huzuriga olib boradi. Demak, aziz pirlar ham Bobur mirzo, ham Haydar mirzo jonlariga bevosita yoki bilvosita ora kiradilar.

Aziz-avliyolar, pir-murshidlarga «Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy» asarlarida ajratilgan o'ringa ahamiyat bersak, Haydar mirzo Bobur Podshohga ko'ra ko'proq e'tibor bergan desa bo'ladi.

Muhammad Haydar mirzo nazarida ushbu ma'naviyat darg'alari safida turuvchi kishilar, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda «asl ilm – din ilmi» donishmandlari, arboblari, aziz-avliyolar ham borlar: Abdurahmon Jomiy, Mavlono Sa'diddin Koshg'ariy, Mavlono Nizomiddin Xomush, Xoja Alouddin Attor, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ubaydulloh Ahror, Mavlono Dovud Hisoriy, Mavlono Shayx Husayn Muhtasib, Mavlono Shamsiddin Bahrobodiy, Mavlono Shamsiddin Muhammad (Zavjiy) Rumi, Xoja Abdulaziz Jomiy, Shayx Puron, Mavlono Abu Said Ubahiy, Mavlono Mu'in Voiz, Mavlono Xoja Ko'hiy, Hofiz Mahmud Ziyoratgohiy va boshqalar haqidagi ma'lumotlar yanada mufassalroq berilgandir.

³⁶ Султонов Ў. Хожа Аҳрор ва унинг авлодлари билан Мўғулистон хонлари ўртасидаги муносабатлар // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2004 й. № 2. 6. 107

Xulosa qilib aytganda «Tarixi Rashidiy»ning boshqa tarixiy asarlardan farq etuvchi xususiyati shundaki, unda hukmdorlar tarixi talqini bilan uzviy ravishda turli davrlardagi diniy shaxslar pir-murshidlarining ham o'ziga xos sulolalari faoliyati o'z aksini topgandir.

Xulosa

O'rta Osiyo, Xuroson, Hindiston va Sharqiy Turkistonning XV asr oxirlari – XVI asr birinchi yarmidagi tarixini o'rganishda Mirzo Muhammad Haydarning 1541-1546 yillarda yozilgan «Tarixi Rashidiy» asari katta ahamiyatga egadir. Asar ikki jild (daftar)dan iborat.

Birinchi jildda Chig'atoy ulusi emirilgach, uning sharqiy viloyatlarida tashkil topgan davlat – Mo'g'ulistonning qariyb ikki yuz yillik (1347-1546) tarixi yoritilgan. Tug'luq Temurxon (1348-1363)dan to Abdurashidxonning taxtga o'tirguncha (1533 yil) bo'lgan davr batafsil yoritilgan.

Asarning birinchi daftari turli naql-rivoyatlar, shuningdek, Yoqut Hamaviyning «Mujam ul-buldon», Juvayniyning «Tarixi Jahonkushoy», Rashiddinning «Jome ut-tavorix», Jamol Qarshiyning «Mulhaqot us-suroh», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus» va nihoyat Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla' us-sa'dayn» kitoblaridagi ma'lumotlar asosida yozilgan. Lekin, unda ham Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid yangi, yuqoridagi manbalarda bo'lmagan ma'lumotlar ko'p. Qolaversa, birinchi daftar Qoshg'ar, Qozog'iston, shuningdek, Movarounnahr va Turkistonning XIV-XVI asr boshlaridagi siyosiy tarixini mukammal qamrab olishi bilan qimmatlidir.

Ikkinchi daftar birinchisidan keskin farqli o'laroq esa muallifning esdaliklaridan, ya'ni voqealarga boy jo'shqin hayoti davomidagi ko'rgan-kechirgan xotiralarining jonli va ta'sirli bayonidan iborat. Bu ma'lumotlar

Qoshg'ar, Movarounnahr, Afg'oniston hamda SHimoliy Hindistonning XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o'rganishda asosiy va qimmatli manbalardan hisoblanadi.

«Tarixi Rashidiy» XVIII asrdan boshlab hozirgacha dunyoning 10 dan ortiq tillariga tarjima qilingandir. Jumladan, ingliz (bir necha marotaba), nemis, fransuz, xitoy, qozoq, turk, uyg'ur, rus, o'zbek, qirg'iz va boshqa tillarga o'girilgan. Unda o'sha davr madaniy-ma'naviy hayotiga oid ma'lumotlar ham ko'p bo'lib, mashhur so'fiylar, shoirlar, olimlar, san'atkorlar hayoti va ijodi haqida g'oyat muhim ma'lumotlar keltirilgan.

«Tarixi Rashidiy»ning boshqa tarixiy asarlardan farq etuvchi xususiyati shundaki, unda hukmdorlar tarixi talqini bilan uzviy ravishda turli davrlardagi diniy shaxslar pir-murshidlarining ham o'ziga xos sulolalari faoliyati o'z aksini topgandir.

«Tarixi Rashidiy» muallifi o'z kitobida ko'pgina diniy arboblarning va ularning asarlariga o'rin ajratadi. Ularning faoliyatini el-yurt xaloskorligini ta'minlashda, ma'naviy-ma'rifiy jahdida shohu gadoga teng ta'sir o'tkazishda kuzatadi. O'z e'tiqodi manbai va shaxsiy yutuqlarini shu piri murshidlar faoliyatlari sharofatidan ko'radi. Biz biror tarixiy asarda diniy ustozlarga bu darajada keng o'rin ajratilganini bilmaymiz.

Voqea-hodisalar talqinining izchilligi, muallifning og'zaki ishonarsiz ma'lumotlarni asarga kiritmasligi, tarixiy arboblarning shaxsiyatiga haqqoniy oqilona munosabat, hatto diniy nuqtai nazardan o'zi la'natlab turgan shaxs va uning so'zlari, maktublari mazmuni haqqoniyatiga erishish, talqinda fikr tiniqligi, balandparvoz murakkab jumladan qochish, samimiylik tarixchi va adib Muhammad Haydar mirzoning uslubini belgilaydi.

«Tarixi Rashidiy»da temuriylar sulolasi, boburiylar sulolasi, mo'g'ul xonlari sulolasi, o'zbeklar sulolasining tarixiy manzarasi kitobxon ko'z o'ngida butun kengligi va ko'pligi bilan namoyon bo'lsa, ayni paytda qozoq xonlari, safaviylar sulolasi hamda qirg'iz biylari ham ma'lum ma'noda tarixchi nazaridan chetda qolmagan.

Mirzo Haydar «Tarixi Rashidiy»da mirzolar, xonlar, o'zbeklar va qozoq hukmdorlariga doir voqealarni talqin qilar ekan, buyuk insonshunos sifatida (bu sifat Boburga ham juda xos edi) har bir hukmdorning ma'naviy-axloqiy olamini ham ochib berish payida bo'ladi. Muallif-adib bir necha xil ijtimoiy siymolarni kitobxon ko'z o'ngida tizadi. Ulug' maqsadli buyuk jahongir va lashkarboshi hukmdorlar: Amir Temur, Tug'luq Temurxon, Abusaid mirzo; ma'rifatli hukmdorlar – Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Yunusxon, Bobur mirzo, Ubaydullohxon, Sulton Saidxonlarni bir tomondan, razil-shafqatsiz, insofsiz, mutakabbir, yovuz xon, shoh va beklar: Abobakr mirzo, Mirzo Ali Tog'ay, Kuchluk, Do'stmuhammadxon, Muhammadilarni ikkinchi tomondan gavdalantiradi.

Darhaqiqat, Amir Temur buyuk jahongir sifatida Hindistondan Turkiyagacha lashkar tortib ulkan bir mamlakat sohibi bo'lganidek, Abusaid mirzo ham Sharqiy Turkistondan Kavkaz Qorabog'igacha cho'zilgan hududlarni o'z zabtiga olib, Amir Temurning oyog'i tekkan erlarni yana bir mamlakat holiga keltirishga tirishdi. Mo'g'ul xonlaridan Tug'luq Temurxon ham Chingiz davrida Chig'atoyga mansub keng hududlarda o'z hokimiyatini tiklash uchun O'rta Osiyoga bosqinchilik hujumlari uyushtirib turdi va bu mo'g'ullarning saltanati soyasidan Amir Temur, Shohrux va Ulug'bek mirzolar davrida ham davlat hujjatlari boshida falon xon nomi turardi. Chunonchi, Amir Temur farmonlari «Suyurg'otmishxon yorlig'idin Temur Ko'ragon so'zum» deb boshlanadi. Keyingi hukmdorlar ham ana shunday farmonlar yozdirishgan; o'zlarini xon ismidan keyin keltirishgan. Bu noxush an'anaga Abusaid mirzogina chek qo'ydi.

Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro Movarounnahr va Xurosonning poytaxt shaharlari Samarqand va Hirotni nafaqat me'moriy obidalar jihatidan, balki ilm-fan, madaniyat va san'at sohasida ham jahonga ko'z-ko'z qiladigan darajaga etkazdilar. Bobur va Ubaydullohxon ham o'zlari buyuk shoir, lashkarboshi bo'lishlari bilan birga shaharsozlik va ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shdilar, o'z saroylarida adabiy muhit yaratdilar.

Asarda «Boburnoma» ta'siri yaqqol sezilib turadi. Akademik V.V. Bartol'd ham buni ta'kidlab yozgan edi: «Mirzo Haydarning asari ko'p hollarda uning xolavachchasi Boburning yodnomalarini eslatadi. Mirzo Haydarning tarixiy ma'lumotlari xuddi Boburnikidek haqqoniyligi va xolisligi bilan ko'zga tashlanadi, jug'rofiy tavsiflar esa joylarni aniq va ravshan ifodalaydi».

Ikki fundamental asar – «Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy» Hirot adabiy-madaniy muhiti talqinida shunchalik bir-biriga yaqinlashadi va bir-birini to'ldiradiki, bu ishda Muhammad Haydar mirzo Bobur mirzo bilan ijodiy musobaqaga tushganday bo'ladi. «Boburnoma»dan ko'pchilik xabardor bo'lganliklari uchun qayd etamizki, Bobur o'z asarida Abdurahmon Jomiy ismini tabarrukkagina eslatgan bo'lsa, Haydar mirzo Jomiy hayotining ajoyib sahifalarini juda izchillik bilan bayon etadi, uning risolasi matnini to'lig'icha keltiradi.

Aftidan, Muhammad Haydar mirzo «Vaqoe'» («Boburnoma»)dan yaxshi xabardor bo'lgan. Shuning uchun Hirot ilm-adab hamda din ahllari xususidagi ma'lumotlari bir-birini takrorlamaydi, balki to'ldirib, mukammallashtirib boradi. Haydar mirzo madaniy-adabiy muhit miqyosini kengroq qamrab olganidek, diniy-tasavvufiy arboblarning hayoti va ijodiga ham juda katta o'rin ajratadi. «Tarixi Rashidiy»dagi shoir, olim, rassom, xattot va fuzalolarning ismima-ism ko'rsatilgani va har biri haqidagi ma'lumotlarning aniqligi, muhimligi kishini hayratga soladi. Bu o'rinda ushbu ma'lumotlarning ko'pligi, xilma-xilligi, mukammalligi jihatidan «Tarixi Rashidiy» «Boburnoma» bilan bemalol bellashadi. «Boburnoma»da tilga olingan shoiru olimlar haqidagi ma'lumotlar bu asarda yangiligi bilan e'tiborimizni jalb etadi. Hatto «Vaqoe'» («Boburnoma»)da Alisher Navoiy haqida Bobur qanchalik keng to'xtalgan bo'lmasin, Muhammad Haydar mirzo ma'lumotlari ularni yanada mukammallashtiradi, aniqliklar kiritadi.

Yapon olimi Eyji Mano Markaziy Osiyoning XV-XVI asrlardagi tarixini «Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy» asosida yaratish mumkinligi tajribasini «Bobur va uning davri» nomli fundamental tadqiqotida isbotlab bergan.

Xulosa qilib aytganda «Tarixi Rashidiy» ma'lumotlari o'zbek, qozoq, qirg'iz, qalmaq va boshqa Markaziy Osiyo xalqlariga, ularning o'tmishdagi

aloqalariga, iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotiga, shu mintaqaning jug'rofiy hayotiga oid masalalarni o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. «Tarixi Rashidiy» asarining yoshlar tarbiyasiga, ularni buyuk ishlarga jalb etishga e'tibor berish borasidagi ahamiyati ham beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
4. Амир Темур. Амир Темур ўғитлари. Тузувчилар Б.Ахмедов, А.Аминов. – Т.: Наврўз, 1992.
5. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001.
6. Баракаев Х. Тасаввуф ва Хожа Аҳрор Валий. – С.: Сўғдиён, 1997.
7. Бузруков М. Низомиддин Хомуш – Хожа Аҳрор устози // Республика ёш олимлар илмий-амалий конференцияси материаллари. – Т.: Фан, 2007.
8. Бухорий С.С. Дилда ёр (Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд). – Т.: Ғ. Ғулом ном. Адабиёт ва санъат наш., 1993.
9. Бухорий С.С. Табаррук зиёратгоҳлар. – Т.: Ёзувчи, 1993.
10. Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор Вали. – С.: Зарафшон, 1993.
11. Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. – Т.: Ёзувчи, 1994.
12. Валихўжаев Б. Буюк маънавий муршид. – Т.: Фан, 2004.
13. Иззат Султон. Баҳоуддин Нақшбанд абадияти. – Т.: Фан, 1994.

14. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т.: Юлдузча, 1989.
15. Кадырова М. Жития Ходжи Ахрара. Опыт системного анализа по реконструкции биографии Ходжи Ахрара и истории рода Ахраридов. Т.: Рабочие документы IFEAK, 2007
16. Каримов С. Амир Темур ва нақшбандийлик // Таълим тизимида талаба ёшларнинг ғоявий-мафкуравий тарбияси ва уларнинг уйғунлигини таъминлашнинг долзарб муаммолари. Мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари
17. Каримов Э. Хўжа Ахрор ҳаёти ва фаолияти. – Т.: Маънавият, 2003.
18. Каттаев К. Гўри Амир макбараси ва қабртошлари тарихи. – С.: Зарафшон, 2008.
19. Мавлоно Муҳаммад Қози. Хукмдорга ўғитлар. Т.: Шарқ, 1999.
20. Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Т.: Фан, 2007.
21. Мирза Муҳаммад Хайдар. Та’рих-и Рашиди. Введ., пер. с персидского А. Урунбаева, Р.П. Жалиловой, Л.М. Епифановой. Примечания и указатели Р.П. Жалиловой и Л.М. Епифановой. – Т.: Фан, 1996.
22. Муҳаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Ваҳоб Раҳмонов ва Янглиш Эгамов таржимаси. Т.: Шарқ, 2010.
23. Раззокова М.С. Яъқуб Чархийнинг илмий мероси ва унинг нақшбандия тариқати ривожиди тутган ўрни (XIV-XV асрлар): Тарих фан. ном. ... дис. – Ташкент, 1998
24. Раззокова М. Мавлоно Яъқуб Чархий – Хожа Ахрорнинг пири // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2004 й. № 2
25. Султонов Ў. Хожа Ахрор ва унинг авлодлари билан Мўғулистон хонлари ўртасидаги муносабатлар // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2004 й. № 2.
26. Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999.
27. Фахруддин Али Сафий. Рашаҳоту айнил-ҳаёт (Обиҳаёт томчилари). Таржимон домла Худойберган ибн Муҳаммад (XIX аср). Нашрга

- тайёрловчилар М.Ҳасаний, Б.Умрзоқ. Масъул муҳаррир Б.Умрзоқ. – Т.:
Абу Али Ибн Сино ном. тиббиёт наш., 2004.
- 28.Хидирова Н.Ў. Хожа Муҳаммад Порсонинг хожагон-нақшбандия
тариқатининг ривожланишида тутган ўрни ва роли (XIV а.о.-XV а. б.):
Тарих фан. ном. ... дис. – Ташкент: 2008
- 29.Қутибоев З. Хожа Аҳрор Валий. – Т.: Фан, 1996.
- 30.Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда ислом маданияти. Т.:
Шарқ, 2005.